

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM

VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: NAVOIY TALQINIDA KUY: BADIY MAHORAT VA
ESTETIKA BIRLIGI**

Bajardi: “Sharq mumtoz filologiyasi”
ta’lim yo`nalishi bitiruvchi kurs
talabasi

Jumabayeva Oysara Rustamovna

Ilmiy rahbar: f. f.d., professor Q.P.
Sodiqov

Ushbu bitiruv malakaviy ishda bobokalonimiz Alisher Navoiyning ijodida
kuy so’zining ma’no qirralari ochib berilgan.

Toshkent - 2012

Mundarija

Kirish.....	3
I bob. Navoiy talqinida kuy.	
I.1. Kuy va kuychi soʻzlarining shakl va maʼno xususiyatlari.....	7
I. 2. Kuy soʻzida badiiy ramziylikning aks etishi.....	18
II bob. Badiiy mahorat va estetika uygʻunligi.	
II.1. Navoiyning kuy bilan bogʻliq estetik qarashlari.....	27
II. 2. Shoir badiiyatida estetik qarashlarning oʻrni.....	33
II.3. Shoir mugʻanniyomalarining badiiy jilosi.....	38
Xulosa.....	56
Foydalanilgan adabiyotlar.....	60

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Har bir xalqning qanchalar qadim va navqiron ekanligi uning boy va qimmatli tarixi bilan o'lchanadi. O'zbek xalqi navqiron xalqdir, zero, uning Navoiydek daholari ko'p. Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek: "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"¹. Bizning tariximizni boy va sermazmun qilishda o'zining beminnat xizmatlarini ayamagan Alisher Navoiy ijodini o'rganish bugun biz – yosh filologlar oldida turgan sharaflı burchdir. Navoiyning asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ul zotning qo'l urmagan mavzulari, fikr yuritmagan sohalari qolmagandek tuyiladi kishiga. Ustozning nazm va nasrdagi mavzu ko'lamı shu qadar kengki, ular shoirning qanchalar zukko, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqea - hodisalarga nisbatan mushohadakor va ayni paytda hozirjavob ekanidan dalolat beradi. Xususan, dunyoning achchiqchuchugini totgan, undan goho "komronlig", goho "notavonlig" topgan buyuk shoir va mutafakkirning oltmish yillik hayot tajribalari asosida yozilgan asar "Mahbub ul-qulub" da ham Navoiy bir qancha soha vakillari haqida xolisona fikr yuritar ekan, ularning ayrim xatti-harakatlarini tanqid ostiga ham olgan. Shulardan bir toifasi "Ashulachi va cholg'uchilar" to'g'risida bo'lib, adib asarning yigirma ikkinchi faslini shu soha egalariga ajratadi va uni "Mutrib va mug'anniylar zikrida" deb nomlaydi.

Navoiyning kuy va kuy ahli haqidagi qarashlari faqat bu kitobda emas, balki uning boshqa asarlari, xususan, ayrim g'azallarida ham uchraydi. Muhimi, shoir bu so'zlardan shunday mohirona foydalanadiki, natijada har bir vaziyat, har bir holatdan kelib chiqib, so'zlarni ma'nodoshlari bilan birga o'rnida qo'llashga erishadi.

Xo'sh, o'zi kuy nima? Uning insoniyat hayotida qanchalik o'rni bor? Odamlar uni faqat estetik zavq olish uchun tinglashadimi, yoki bundan boshqa muddao ham

¹Islom Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" T. 2007.

bormi? Musiqani tinglashdan murod, g'am, anduh-u chigalliklarni ko'ngildan forig' etmoqmi, yohud uning mahzun ohanglaridan dard ustiga dard qo'shmoqmi? Aytish mumkinki, ushbu savollarning to'g'ri javobini topish va yosh avlodni o'sha yo'l sari undash bugungi kun oldida turgan bosh masalalardandir. Buning uchun ustoz merosini bot-bot varaqlamoq, ul zotning teran fikrlarini diqqat bilan ilg'ab olmoq kerak.

Mustaqilikka erishgach, buyuk mutafakkir Navoiy ijodini o'rganish davlat ahamiyati darajasiga ko'tarildi. Toshkent davlat Sharqshunoslik institutida Sharq mumtoz filologiyasi yo'nalishi va shu nomdagi kafedraning yo'lga qo'yilishi hamda navoiyshunoslik fanining o'qitila boshlangani fikrimizning yaqqol dalilidir. Tan olish kerakki, sobiq ittifoq davrida ham o'zbek navoiyshunosligida katta ishlar qilindi, ammo sir emaski, nashr jarayonidagi qisqartirishlar, asarlar talqinidagi noto'g'ri tahlillar ham talaygina. Ayni shu holatlar o'sha davrda bu sohada bimalol faoliyat olib borishning cheklanganidan darak beradi. Bugun esa Navoiyni asliyatdan o'rganish, uning me'rosini to'laqonli tahlil qilish uchun keng yo'l ochib berildi. Bu ishlarning boshida muhtaram yurtboshimiz turganligi, ayniqsa, quvonarli holdir. Islom Abdug'aniyevich Karimov buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning millatimiz, xalqimiz oldidagi ulkan xizmatlari haqida so'z yuritarkan: "Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir.

Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir" degan edi².

Mavzuning o`rganlik darajasi.

Avval ham ta`kidlaganimizdek, Navoiy serqirra ijodkordir. Xususan, shoirning kuy va kuy ahli haqidagi qarashlarining o`zi bir olamdir. Ushbu mavzuyimizning ayrim jihatlarini adabiyotshunos olim Natan Mallayev, yirik navoiyshunos olima Suyima G`aniyeva, filologiya fanlari doktori, professor Qosimjon Sodiqovlar tadqiq etishgan. Biroq o`rganishlar maqolalar tarzida bo`lib, alohida monografik holda olib borilmagan. Shuning uchun bu mavzuda yana bir qancha izlanishlar olib borishga ehtiyoj sezdik va tadqiqotimizni shu masalaga bag`ishlashga qaror qildik.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari.

Ushbu ishimizni kirish, asosiy qism, ikki bob va xulosa tartibida bir izchilikka solib, quyidagilarni o`rganishni asosiy maqsad va vazifalarimiz sifatida belgilab oldik:

1. Navoiy talqini ostida kuy (musiqa bilan bog`liq barcha atamalarni shu so`z orqali ifoda etib boramiz) va kuychi so`zlarining shakl va ma`no xususiyatlarini aniqlash.
2. Shoir ijodida kuy so`zidagi badiiy ramziylik ifodasini aniqlash.
3. Navoiyning kuy bilan bog`liq estetik qarashlarini aniqlash.
4. Shoirning badiiy mahoratini kuy so`zi misolida tadqiq etish.
5. Shoir estetik qarashlarining uning badiiyati bilan muvofiq kelishini kuy so`zi misolida o`rganish.
6. Navoiyning tilimiz va adabiyotimiz rivojlanishidagi xizmatlarini ko`rsatib berish.
7. O`rganib chiqilgan masalalar yuzasidan yakuniy xulosaga kelish.

²Islom Karimov "Yuksak manaviyat – yengilmas kuch" T. 2008.

Tadqiqot metodi.

O`zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida klassik asarlar bialn bog`liq holda yaratilgan ishlarda ko`plab metod va usullarning borligini kuzatishimiz mumkin. Biz ushbu tadqiqotimizda sharqshunoslik va turkshunoslikdagi ana shu ilg`or usullardan unumli foydalanishga harakat qildik. Shuningdek, ishga tasnifiy, qiyosiy, analitik metodlar joriy qilindi.

Tadqiqot obyekti.

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizga asos qilib “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotini jalb qilgan bo`lsak, undan tashqari “Xamsa”ning, “Saddi Iskandariy”, “Layli va Majnun”, “Hayrat ul-abror” dostonlaridan ham foydalandik. Shuningdek, yana bir qancha asosiy, qimmatli ma`lumotlarni Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Mezon ul-avzon”, “Muhokamat ul-lug`atayn” asarlaridan izlab topishga muvaffaq bo`ldik.

I bob. Navoiy talqinida kuy

I.1. Kuy va kuychi soʻzlarining shakl va maʼno xususiyatlari.

Tilimizda kuy va kuychi maʼnolarini anglatuvchi bir necha soʻzlar bor boʻlib, ayni paytda bu soʻzlarning har biri oʻrni bilan oʻzgacha maʼno qirralarini kasb etib, oʻz shakldoshlariga ham ega. Shu sabab eʼtiborimizni ushbu soʻzlarning Navoiy ijodiga xos leksik-semantik hamda morfem-morfologik jihatlariga qaratsak. Buyuk tilshunos olim “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida kuy soʻzini ham tilga oladi va uning shakldoshlik xususiyatlarini quyidagicha ochiqlab beradi: “va koʻk lafzin ham necha maʼno bila isteʼmol qilurlar. Biri koʻk–“osmon” ni derlar, yana koʻk–“ohang”dur, yana koʻk–“tikarda koʻklamak”dir, yana koʻk–“qadagʻ”ni ham derlar, yana koʻk –“ sabza-vu oʻlang” ni dagʻi derlar”³.

Demak, bugungi tilimizda musiqa maʼnosini anglatuvchi kuy soʻzi aslida “koʻk” shaklida boʻlib, u keyinchalik ayrim fonetik oʻzgarishlar (“oʻ ” unli fonemasining “u”, “k” undosh fonemasining “y” tovushlari) ga uchraganligi natijasida hozirgi holiga kelib qolgan. Shuning uchun ham “ohang” maʼnosidagi kuy hozirda Navoiy keltirgan “tikarda koʻklamak”, “osmon”, “qadagʻ” va “sabza-vu oʻlang” kabilar bilan shakldoshlik hosil qilmaydi, balki fonetik oʻzgarishga uchraganligi hisobidan “yuqori haroratda badan yoki uning biror qismiga shikast yetkazmoq” maʼnosidagi kuymoq feʼli bilan omonimdir. Kuy tub soʻz boʻlib, morfologiyada ot soʻz turkumi tarkibida oʻrganiladi.

Kuy soʻzining bir necha maʼnodoshlari ham bor boʻlib, ulardan biri *navodir*. Porso Shamsiyev rahbarligida tuzilgan “Navoiy asarlari lugʻati”da *navo* soʻzi shunday izohlanadi:

Navo 1.Ovoz, sado. 2. Kuy, musiqa ohangi; mugnli un. 3. Navo nomli maxsus bir kuy. 4. Boylik. 5. Nasib, bahri; *Navo topmoq*- bahra topmoq, bahralanmoq;

³Qosimjon Sodiqov. “Muhokamat ul-lugʻatayn” ni oʻqib oʻrganish. T. 2011. 34-b.

Navo tuzmak–kuylamoq, sayramoq; *Navo chekmak*–kuylammoq; *Benavo*–yo`qsil, bechora, bahrasiz; *Xush navo*–xushovoz, yaxshi kuylovchi; *Navo naqshi*–navo kuyi; *Navo-vu soz*–uy jihozlari. ⁴

Lug`atda bu so`z yana bir qancha yasovchilarni qabul qilib, shuningdek, ba`zi birikmalar tarkibida kelib, o`zgacha ma`no qirralarini ham namoyon qilishi misollar bilan ko`rsatiladi. Qizig`i shundaki, kuy va navo so`zlarining yuqorida qayd etilgan har bir ma`nosi Navoiy lirikasida o`z aksini topgan.

Navo forsiydan o`zlashgan so`z bo`lib, Navoiy davri turkchasida bu so`z lug`atda izohlangan har bir ma`nosi bilan faol bo`lgan. Masalan, Navoiyning ukasi Darveshaliga qarata aytgan quyidagi baytga diqqat qilsak:

Navosiz ulusning navobaxshi bo`l,

Navoiy yomon bo`lsa, sen yaxshi bo`l.

Bu o`rinda *navosiz*–“bebahra, yo`qsil” ma`nolarida, *navobaxsh* - “bahra ulashuvchi, xalq koriga yarovchi” ma`nolarida kelyapti.

Navo o`rin joy oti yasovchi–goh qo`shimchasini olib, “navo joyi, sayrash joyi” ma`nosini beradi:

Anga sidra shoxi navogoh o`lub,

Munga ravza bog`i charogoh o`lub.⁵

Shuningdek, *navogo`*, *navozanda*, *navoiy*, *navosoz* so`zlarining ham asosi “navo” bo`lib, ularning barchasi “kuychi, cholg`uchi; ashulachi; allachi” kabi ma`nolarni beradi.

⁴“Navoiy asarlari lug`ati” Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibragimov. T.1972. 445-b.

⁵O`sha asar .446-b.

Yana *nag`ma* so`zi ham birinchi ma`nosida “ohang, kuy, maqom”, ikkinchi ma`nosi bilan “sayrash” so`zlariga teng keladi.⁶ Masalan:

So`zda Navoiy ne desang, chin degil,

Rost navo nag`maga tahsin degil.⁷

Navoiy davrida “nag`mayi rexta” nomli maxsus bir kuy bo`lgan:

Mug`anniy, tuzat nag`mayi rexta,

Ani qil o`zing birla omexta.⁸

Nag`ma so`zi ham *nag`mazan*, *nag`makash*, *nag`makor*, *nag`mapardoz*, *nag`masaroy*, *nag`masoz* kabi shakllarda kelib, “kuylovchi, xonanda, sozanda, ashula aytuvchi, cholg`uchi” ma`nolarini beradi⁹.

Yana tarona so`zi ham quyidagi ma`nolarda keladi:

1. Ashula, ohang, maqom; 2. Aruz ilmida ruboiy vaznining nomi; *Tarona surmak*–kuylab o`qimoq; so`zlamoq; *Tarona tuzmak*, *tarona chekmak*–ashula aytmoq, xonish qilmoq, kuylamoq¹⁰.

Masalan:

Istasangkim, nag`mang ichra ko`p xaloyiq o`lmagay,

Ul ikavdin ko`p, vale mendin tarone oz tuz.

⁶“Navoiy asarlari lug`ati” Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibragimov.T.1972. 457-b.

⁷Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” mukammal asarlar to`plami, yigirma tomlik, 7-tom. T. 1992. 93-b.

⁸“Navoiy asarlari lug`ati” Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibragimov.T.1972. 457-b.

⁹“Navoiy asarlari lug`ati” Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibragimov.T.1972. 458-b.

¹⁰“Navoiy asarlari lug`ati” Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibragimov.T.1972. 537-b.

Ushu soʻzlarning maʼnodoshlaridan yana biri, *surud* boʻlib, bu soʻz Navoiy ijodida: ashula, qoʻshiq, kuylash, musiqa, shuningdek, *surud tortmoq*–kuylamoq; *surud yasamoq*–ashula qilmoq, kuyga solmoq kabi maʼno koʻlamini kasb etadi ¹¹. Masalan:

Gar mening holim desang tuz barcha dostoni niyoz,

Dilbarimdin nagʻma soz etsang, surudi noz tuz.

Bu soʻz *surud chekmak* shaklida kelib, ashula aytmoq, kuylamoq maʼnolarini beradi:

Subh boʻlgʻoch yana surud chekib,

Nagʻma birla navoyi rud chekib.

Bu soʻzlarga maʼno jihatdan teng keluvchi yana bir soʻz *yir* boʻlib, “ashula, qoʻshiq, jir” maʼnolarini beradi va *yirlamaq*, *yirlagʻuchi*, *yirov* tarzida soʻz yasovchi qoʻshimchalarni ham qabul qiladi. Lugʻatda har uch soʻzning ham izohi berilgan: *yirlamoq*–jirlamoq, ashula qilmoq; *yirlagʻuchi*–jirlovchi, ashula qiluvchi, hikoyachi; *yirov*–jirov, baxshi, doston aytuvchi, hikoya aytuvchi; ashulachi¹².

Demak, *yir* soʻziga faol qoʻshimcha *-la* qoʻshilib, otdan feʼl yasalgan, soʻng hosil boʻlgan *yirla* soʻziga *-gʻuvchi* sifat-dosh shakli yasovchi qoʻshimcha qoʻshilgan. Maʼlumki, koʻpgina kasb otlari asli sifat-dosh hisoblanib, *yirlagʻuvchi* soʻzi ham shular jumlasidandir. Ayni shu soʻzga maʼnodosh hisoblangan *yirov* esa otdan yasalgan otdir. Umuman, *yir* va undan yasalgan soʻzlar xalq kuy-qoʻshiqlari uchun qoʻllanilgan atamalardir:

¹¹“Navoiy asarlari lugʻati” Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibragimov.T.1972. 567-b.

¹²“Navoiy asarlari lugʻati” Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibragimov.T.1972. 296-b.

Ey yirov, sen ham eshikni ko`rguz,

Yo to`g`on birla ulug` yirni tuz.

Yo to`g`onchi degay o`turgach un,

Sen qadah ol-u to`quz qatla yukun¹³.

Yuqoridagi so`zlarning yana bir ma`nodoshi *qo`shiq* so`zidir. Ammo bu so`zning asosini tashkil etuvchi *qo`sh* so`zi qaysi ma`nodan kelib chiqqanini belgilashda biroz ehtiyotkorlik lozim. Navoiy va undan oldingi davr turkiysida “qo`shuq” so`zi “ashula” ma`nosidan sal yiroq bo`lgan. Tadqiqotlarga ko`ra, *qo`sh* so`zi eski tilimizda omonim so`z bo`lgan va quyidagi ma`nolarni anglatgan:

1. Ikki narsani bir-biriga aralashtirmoq yoki ulamoq.
2. To`qimoq (she`rga nisbatan).
3. Omoch, ho`kiz¹⁴.

Qo`shiq so`zi “qo`sh”ning ikkinchi ma`nosi “to`qimoq”dan yasalgan, “omoch”dan emas. Tilimizda -k, -q qo`shimchalarining fe`ldan (otdan emas) ot yasashi bunga yana bir isbot bo`la oladi. “Devoni lug`oti turk”da *qo`shuq*–to`qilgan narsa, ya`ni she`r ma`nosini bildirgan. “Hayrat ul-abror”dan olingan quyidagi bayt ham shu izohga yaqin:

Anglamayin so`zda tuyuq bahrini,

Qaysi tuyuq, balki qo`shuq bahrini.

¹³Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” 698-b.

¹⁴Q. Sodiqov “Navoiy – kuy va qo`shiq so`zining ma`nosi”. “Sharq mash`ali” jurnali 1,2-sonlar. T. 2001. 56-59-bb.

Shuningdek, “Mezon ul-avzon”da Navoiy quyidagilarni yozadi:

“Yana *qo`shuq* durkim, arg`ushtak usulida shoye`dur va ba`zi advor kutubida
ul usul zikr bo`lubtur va ul surud a`borning teva surar hudilari vazni bila madidiy
musammaniy solimda voqe` bo`lur, aning asli bu navdurkim, bayt:

Vahki ul oy hasrati dard-u dog`i furqati,

Ham erur jonimga o`t, ham hayotim ofati.

Foilotun foilun Foilotun foilun”.

Ammo bu latif zamonda va sharif davronda bu surudni ramali musammani mahzuf vaznig`a elitib, musiqiy va advor ilmida muloyim tabliq benazir yigitlar g`arib nag`omat va alhon bila ajab tasarruflar qilib, sulton sohibqiron majlisida ayturlarkim, aning muloyimlig` va xush oyandalig`i vasfqa sig`mas va ta`sir va raboyandalig`i sifatqa rost kelmas, balki ul hazratning ixtiroidur va bu ham ul hazratning masihoso anfosi natoijidin istihshodg`a kelturmak munosibroq erdi, andoqkim, bayt:

Sabzai xatting savodi la`li xandon ustina,

Xizr go`yo soya solmish obi hayvon ustina.”

Foilotun foilun foilotun foilun¹⁵

Demak, Navoiy davrida “qo`shuq” nomli alohida she`riy janr bo`lib, unda musiqiylik yuqori darajada bo`lganligidan mug`anniylar ham bu qo`shuqlarga kuy bog`lashgan. Xulosa shuki, qo`shuqning “she`r” ma`nosidan “ashula” ma`nosiga qarab ketishi ayni shu jarayondan boshlangan.

¹⁵Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” 180-b.

Kuy, qo'shiq ma'nosini anglatuvchi yana bir so'z *chinga*dir. "Mezonul-avzon"da keltirilishicha, *chinga* zufof (arabcha so'z bo'lib zifaf va zufof kabi talaffuz etiladi, ma'nosi "nikoh to'yi") va qiz uzatish marosimlarida aytilgan. Bu jihatdan u hozirgi "yor-yor"ga to'g'ri keladi. Navoiyning uqtirishcha, chinganing ikki turi bo'lib, birinchisi hech qaysi vaznga teng kelmaydi. Ikkinchi turi esa munsarihi matviyi mavquf bahriga to'g'ri keladi va bu qo'shiqqa yor-yor so'zini radif o'rnida keltiradilar:

Qaysi chamandin esib keldi sabo, yor-yor

Kim damidin tushdi o't jonim aro, yor-yor.

Muftailun foilon muftailun foilon¹⁶

Shoirning ayrim g'azallarida "ovoz" so'zi ham kuy ma'nosiniberadi. Masalan:

Ey mug'anniy, chun nihon rozin bilursen soz tuz,

Tortibon munglug`navo sozing bila ovoz tuz.

Ushbu baytda *ovoz tuzmoq* matndan kelib chiqib "kuylamoq, qo'shiq aytmoq" ma'nolarida kelgan.

Navoiy ijodida *ayalg`u* so'zi quyidagi ma'nolarda kelgan.

1. Musiqa asboblaridan biri:

Sovururda do'st javrin zaxm ichra darj etib,

Do'stlar bedod-u zulmin ham, ayalg`u kelturung.

2. O'lan, ashula, alla, kuy, ohang ta'sirli qo'shiq:

Holimg`a hajr bazmi aro tortsam surud,

¹⁶Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" 18-19-bb.

Bor navha maddi telba ko`nglumning ayalg`usi.¹⁷

Shoir asarlarida shu ma'noda keluvchi yana bir so`z *ohang*dir. Bu so`z ayni paytda shakldosh bo`lib, quyidagi ma'nolarni beradi:

I.1. Qasd, niyat, istak, intilish. 2. Boshlash. 3. Yo`nalish.

II. Ravish, tarz, o`xshash, monand, kabi: *Oina ohang* - oyna monand, oina kabi.

III. kuy, ohang; *ohangi rost* - rost ohangi, kuyi¹⁸

Masalan:

Navha ohangi tuzib, og`oz qil mahzun surud,

Ul surud ichra hazin ko`nglumg`a maxfiy roz tuz.

Shu ma`nodagi yana bir so`z *savt*dir. Lug`atda bu so`z quyidagicha izohlanadi:

I. Tovush, ovoz; shovqin; ohang, kuy, maqom: *savti jaras* - qo`ng`iroq ovozi; *savti alhon*: 1. kuy, ohang. 2. Kuylash, sayrash (qush-bulbul haqida)

Chek navo, ey bulbuli gulzori shavq,

Savt-u alhoning kelib asrori shavq¹⁹

Yuqoridagi izohdan kelib chiqib, savt so`zi ham shakldoshdir deyish mumkin.

Shuningdek, *nag`am* so`zi ham "kuy, soz" ma`nolarida keladi:

¹⁷"Navoiy asarlari lug`ati" Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibragimov.T.1972. 31-b.

¹⁸"Navoiy asarlari lug`ati" Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibragimov.T.1972. 494-b.

¹⁹O`sha asar. 539-b.

“Ulki ko`rguzgay muloyim tarona-u nag`am, agar eshituvchining hayoti, naqdi anga fido bo`lsa ne g`am”²⁰

Yana *zaxma* so`zi ham quyidagi ma`nolarni beradi:

1. Urish, zarb, chertish. 2. Yara, zaxm. 3. Cholg`u (chunonchi tanbur)ni chertadigan asbob (noxun). 4. Cholg`u kuyi²¹

“har mug`anniyki, dardomandonaroq nag`ma chekar, aning zaxmasi zaxmliq yurakka korgarroq tegar”

Kuy, ohang ma'nosini beruvchi *maqom* so`zi ham shakldosh hisoblanadi:

1. Joy, o`rin, turar joy. 2. Daraja, bosqich. 3. Musiqada asosiy kuy, ohang²².

Shu ma`nodagi yana bir so`z *rost* bo`lib, u Navoiy ijodida quyidagi ma`nolarni beradi:

I.1. o`ng. 2. To`g`ri, tik.

II. musiqa kuylaridan biri²³.

alhon, *ilhon* so`zlari ham yoqimli ovozlar, ashulalar, xonishlar, sayrashlar kabi ma`nolarni anglatib, *alhonnamoy* va *alhonsaro* tarzida sayroqi, sayrovchi; ashulachi so`zlariga to`g`ri keladi.

Shu ma`nodagi yana bir shakldosh so`z *amal*dir. Lug`atda bu so`z quyidagicha izohlanadi:

I. Umid, istak, tilak, orzu.

²⁰ O`sha asar. 457-b.

²¹“Navoiy asarlari lug`ati” Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibragimov.T.1972. 248-b.

²²O`sha asar. 381-b.

²³O`sha asar. 530-b.

II. 1. Ish –harakat, ijro. 2. Mansab.

III. Kuy, ashula, ohang.

Amal ahli – kuy bog`lovchi; *amal-u qavl* - kuy-ohang:

Arg`aning savti-yu noqus uni birla har yon,

Yuz mug`oni amal-u qavl ila g`avg`o erdi.

Yana *romish* so`zi ham Navoiy lirikasida ashula, musiqa ma`nolarida kelib, *romish aylamak*–kuylamoq, musiqa chalmoq; *romishiy*–kuylovchi, chol`guvchi deganidir:

Bir ohang ila aylagil romishe

Ki, yetgay manga bir dam oromishe.²⁴

Shunday qilib, Navoiy talqinida *navo*, *nag`ma*, *tarona*, *surud*, *yir*, *qo`shuq*, *chinga*, *ovoz*, *ayalg`u*, *ohang*, *savt*, *nag`am*, *zaxma*, *maqom*, *rost*, *alhon*, *amal*, *romish* kabi so`zlarning barchasi “kuy; qo`shiq” so`zlariga ma`nodosh bo`lib, ular ayni paytda shakldosh so`zlardir. Bulardan *kuy*, *yir*, *qo`shuq*, *chinga*, *ayalg`u* so`zlari turkiy; *nag`ma*, *savt*, *nag`am*, *maqom*, *alhon*, *amal* so`zlari arabiy; *navo*, *tarona*, *surud*, *ovoz*, *ohang*, *zaxma*, *rost*, *romish* so`zlari forsiy tillarga mansubdir.

Yuqorida ushbu so`zlardan yasalgan shu sohaga oid ayrim kasb otlarini ham keltirib o`tdik. Navoiy ijodida musiqa yo`nalishidagi yana bir qancha so`zlar qo`llanilganki, ular tubandagilarni tashkil etadi:

*Mug`anniy*–ashulachi, sozanda, cholg`uchi kabi ma`nolarni anglatuvchi arab tilidan o`zlashgan so`z. Bu so`z Navoiyning ham nazmiy, ham nasriy asarlarida ko`p bor uchraydi:

²⁴“Navoiy asarlari lug`ati” Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibragimov.T.1972. 530-b.

Mug`anniy, “ajam” ichra tutqil nag`am,

Sig`ur anda zikri “muluki ajam”

Yoki:

“Otashin yuzluk mug`anniyki, halqidin muloyim surud chiqarg`ay hol ahlining kuygan bag`ridin dud chiqarg`ay”

Mug`anniyga ma`nodosh so`zlardan biri “mutrib” bo`lib, bu so`z o`rni bilan shakldoshlik ham hosil qiladi:

1. Cholg`uchi, sozanda, ashulachi.

2. Zuhra (vinera) sayyorasi²⁵.

Masalan:

“muloyim mutribki, tab va fahm anga yor bo`lg`ay, odamiy ko`ngli toshdin bo`lsa anga zor bo`lg`ay...”

Yana *xushovoz* so`zi ham yaxshi cholg`uchi, usta sozanda ma`nolarini anglatgan.

Shoir asarlarida navo qiluvchi, xonanda, xonish qiluvchi ma`nolarini beruvchi *ahli navo* birikmasi ham bir necha o`rinda qo`llanilgan:

Agarchi ahli navodur ul oy boqmas,

Navoiyo, necha bulbul kibi navo qilsang.

Shuningdek, *xushnag`ma*, *xushnag`masaro* so`zlari ham xushovoz, yaxshi kuylovchi, yoqimli sayrovchi, sayroqi kabi ma`nolarni anglatadi. Bu so`zlar ko`p

²⁵“Navoiy asarlari lug`ati” Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibragimov. T.1972. 429-b.

hollarda qushlarga nisbatan qo`llanilgan, ammo o`rni bilan ashulachilarga berilgan sifatlar qatorida ham kelaveradi:

Nag`malar turkona soz ettim o`gush,

Mastlig`din o`ylakim, xushnag`ma qush []

Xulosa qilib aytish mumkinki, kuy va kuychi so`zlarining shakl va ma`no jihatlarini talqin qilish yordamida ushbu so`zlarning Navoiy ijodiga xos ayrim qirralarini inkishof etdik. Shoirning ijodida ayni shu ma`noni beruvchi yana bir qancha so`zlar borki, ular haqida keyingi tadqiqotlarimizda fikr yuritish niyatidamiz. Muhimi, Alisher Navoiy yuqoridagi so`zlardan shunday mohirona foydalanadiki, natijada har bir vaziyat, har bir holatdan kelib chiqib, so`zlarning ma`nodoshlarini o`rnida qo`llashga erishadi. Tadqiqotimizning keyingi qismlarida bu masalaga alohida to`xtalib boramiz.

I. 2. Kuy so`zida badiiy ramziylikning aks etishi.

Navoiy ijodining ayrim pallalarida kuy-u navo so`zlarining badiiy ramziylik kashf etishiga ham guvoh bo`lamiz:

So`zda Navoiy ne desang, chin degil

Rost navo nag`maga tahsin degil.

“Hayrat ul -abror” dan olingan ushbu baytning birinchi misrasidagi so`z kalimasi “badiiy so`z, she`r” ma`nolarida ekanligi hisobga olinsa, ikkinchi misradagi *rost, navo nag`ma* so`zlari ham “ijod; she`riyat” ma`nolarini beradi. Shuningdek, baytdagi *rost* so`zi iyyom san`atining go`zal namunalaridan biridir: bu so`z bilan bir jihatda “chin, haqiqiy” kabi ma`nolar ifodalangan bo`lsa, ikkinchi jihatdan maqomning bir turiga ishora qilinmoqda.

Navoiy “Mahbub ul-qulubning” shoirlarga atalgan o`n oltinchi faslini “Nazm gulistonining xushnag`ma qushlari zikrida” deb ataydi. Ayni shu nomlanishdan

shoirning nazm va navo haqidagi qarashlari uyg'unlik hosil qilishini ko'rish mumkin.

Yana "Badoye ul-bidoya" ning debochasida shunday bayt bor:

Vafo bo'stonining doston saroyi,

Malomat bulbuli, ya'ni Navoiy.

Shu o'rinda shoirning taxallusi ham aynan "navo-kuy" bilan bog'liqligi kishi e'tiborini jalb etadi. Xalqimiz orasida Navoiyning taxallusi haqida bir rivoyat borki, mavzuyimizga taalluqligi bois shu rivoyatni keltirib o'tmoqchimiz:

Ma'lumki, Alisher Navoiy to'qqiz yoshga yetganda she'r yozishni mashq qila boshlaydi. O'sha paytlarda yosh Alisher o'zi yozgan kichik-kichik she'rlarini o'qiganda atrofdagilar qiziqib tinglaganlar.

Kunlardan bir kuni yangi bitgan she'rlarini boqqa chiqib, baland musiqiy ovoz bilan o'qiy boshlabdi. Bu xush ovozga bulbullar ham lol qolib, sukunatga cho'mibdilar. Shu payt daraxt teppasidan bir bulbul uchub kelib, Alisherning tegrasida gir-gir aylanib, so'ng yelkasiga qo'nibdi va uni suhbatga chorlabdi:

- Ey xushovoz kichik shoir, sen o'qigan g'azallaring bulbullarning tong sahardagi navolaridan ham yoqimli ekan, ismingni balsam bo'ladimi?

—Alisher, —javob beribdi bola.

—Bildim, bildim, yangi chiqqan shoir sen ekansan-da. Endi o'zingga chiroyli bir taxallus tanlagin, —debdi bulbul.

Alisherga bulbulning boyagi *navo* degan so'zi xush yoqibdi. Shundan keyin yozgan g'azallarining ostiga *Navoiy* deb yozib qo'yadigan bo'libdi²⁶.

²⁶R. Abdurahmonov va boshq. "Navoiy va uning musiqiy olami" T. 2012.6-7-bb.

Antik davrning buyuk olimi Arastu ta'kidlaganidek, "Afsonalar haqiqatdan xabar beruvchi yolg'on hikoyalardir". Shunday ekan, yuqoridagi "yolg'on hikoya", ya'ni rivoyatdan ham bir haqiqatni – shoirning murg'aklik davridanoq kuy-u navoning shinavandasi bo'lgani va umrining so'ngiga qadar xushxon bulbullarning yoqimli navosidek odamlarga manzur keluvchi tom ma'nodagi navoiyona g'azallar yozishga ahd qilganligini taxmin qilish mumkin.

"Xamsa" dostonlaridan birini tugatayotib, Navoiy shunday yozgan edi:

Men dag'i bu mayniki suzibmen,
Turkona surud anga suzibmen
El ko'ngluga andin bo'lg'usi jub,
Kim keldi bu navhaning mungi ko'p.
Munglug` men-u mung bila payomim
Munglug` kishilar kabi qalamim²⁷.

Demak, shoir yozgan asarlarini mayga qiyoslab, o'zi esa turkiy qo'shiq aytib uning ichida suzib yurganini bayon qilmoqda. Ya'ni Navoiy yozgan asarini turkona suruddek bo'lishini istayapti.

Shoir ijodida may va kuyning teng qo'yilish holatlari ham talaygina:

Zuhd ichida Navoiy topmadi chu maqom
emdi qilur ohang,
Kim bo'lg'ay ul-u, boda-u, bir turfa mug'nniy
mug` kulbasi ma`vo²⁸

²⁷ Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.253-b.

tasavvufiy ruhda yozilgan mustazoddan olingan ushbu parchada “o`zlarini toat- ibodat qilayotgandek ko`rsatuvchi zohidlar” aro o`ziga o`rin yo`qligini bilgan shoir endi mug` kulbasi–mayxonani maskan tutib, unda boda ichgancha bir turfa mug`anniy hamrohlari bilan birga ohang surishini aytmoqda. Xo`sh, o`z o`rnini zohidlar ichida deb topmagan Navoiy nega aynan mayxonani tanladi-yu va qaysi turfadagi mug`anniylar bilan qay ohangni tuzmoqchi?!

Bir qarashda ifodalar juda jo`ndek tuyuladi: zamonasining riyokor shayxlaridan ko`ngli qolgan shoir o`z maqomini ular orasida deb bilmadi va buning natijasida butun dindand yuz o`girib, mayxonani maskan qildi hamda mayxo`rlikka berilib, atrofida mug`anniylarni to`plaganicha kayf-u safosin surdi. Ta`kidlash joizki, agar baytni shunday tahlil qilsak, qaltis xatoga yo`l qo`ygan bo`lamiz. Zero, baytning to`g`ri tahliliga faqat tasavvufiy qarashlar bilan yondashibgina erishiladi. Buning uchun ba`zi tasavvuf atamaları va bugungi kitobxon uchun tushunilishi qiyin bo`lgan so`zlarning izohini keltiramiz: yuqorida aytganimizdek, zuhd–dunyodan voz kechib, toat-ibodat bilan shug`ullanish va bu ishlar bilan o`zini riyokorona mashg`ul ko`rsatish; boda– bizning nazarimizdagi mast qiluvchi ichimlik emas, balki, ishq, ishq bo`lganda ham eng oliy ISHQ, ya`ni Allohga bo`lgan muhabbatdir; mug` kulbasi–mayxona, ammo shunday mayxonaki, unda ilohiy may–ISHQ ichiladi; maqom so`zi bu yerda iyhom san`atini vujudga keltirgan: bir ma`nosi o`rin-joy bo`lsa, ikkinchi ma`nosi kuy-navodir; ma`vo– boshpana, turar joy, maskan demakdir.

Baytdagi mug`anniylar kim-u, ohang nima ekanini sharhlashdan oldin Mavlono Rumiyning “Masnaviy” sidagi “nay hikoyati” ning nasriy bayonini keltirib o`tishni maqsadga muvofiq deb bildik:

Tinglagil nay ne hikoyat aylagay,

²⁸Alisher Navoiy “G`aroyib us-sig`ar ” o`n besh tomlik, 1-tom. T. 1963.

Ayriliqlardin shikoyat aylagay:

“Meni vatanimdan, yoru-do`stlarimdan tortib oldilar. Ayriliqqa giriftor etdilar. Keyin bir ustaning qo`liga topshirdilar. U meni olovga tutdi, ichimni yoqib kirlardan tozaladi. Qizib turgan temir bilan tanamda yetti parda ochdi. Shundan keyingina hech nimasiz qamishdan yoniq ohangli nayga aylandim. Ortiq menda qamishlikdan asar ham qolmadi, o`zimdan bo`shadim va sohibimning nafasi ila to`ldim. U nimaniki puflasa, men o`shani kuylayman. Ey inson, mening hikoyam, aslida sening o`z hikoyangdir. Shuning boisidan ham, mening yoniq ovozimni tinglab titraysan va o`z mojarongni xotirlaysan”.

Mavloni Rumiyning “Masnaviy” da nay hikoyatini keltirishdan murodlari benihoyadir. Biz ushbu hikoyatdan kelib chiquvchi ikki falsafiy mushohadani berib o`tishni maqsadga muvofiq deb bildik:

1. Demak, qamishdan yasalgan nayda endi qamishlikdan asar yo`q, u naybonning nafasi bilan to`lgan va undan taralagan navo odam hikoyasi bo`lgani uchun ham odamlarga manzur.

2. Hayotimizdagi odamlarni ham qamishlarga mengzash mumkin, ya`ni bu qamishlarning ba`zilarigina nay bo`lishga loyiq. Zero, qamishzorga borgan usta nay uchun maxsus qamishlarnigina kesib oladi, ya`ni hamma qamishlar ham naylikka yaramaydi. Xuddi shuningdek, Parvardigor ham bandalari orasida munosiblarinigina tanlab oladi va uning ichini bor chirkinliklardan xalos etadi. Ana shundan bu suyuqlik bandalarning so`zlaganlari sohibining nafasini nola qilgan nay yang`lig` Hikmat dan o`zgasi emas.

Endi Navoiy baytining tahliliga qaytsak. Ha, zamonasining qamishsifat zohidlaridan zorlangan Navoiy kuy-u navolari bilan oliy ishq sari chaqiruvchi mug`anniyalar– so`fiylar davrasida mug` kulbasi–darveshxonani makon aylarkan, may ichib, ya`ni ishqini jazavaga keltirib, ohang tuzishi–Hikmat yozishini aytmoqda.

Chindan ham, Navoiy nay-u, uning bari kuylaganlari hikmat edi. Besh yarim asrdirki ustozning asarlari avloddan avlodga o'tib keladi. Albatta, Yaratganning irodasi bilan bu asarlar yana shuncha asrlar osha avlodlarda ma'naviy ozuqa berajak.

Navoiyning kuy bilan bog'liq ramziy ifodalari joy olgan yana bir-ikki misolni e'tiboringizga havola qilmoqchimiz:

Mug`anniy nag`masi jon bersa, bazm ahliga tong yo`qki

Navoiy rishtai jonin eshib changiga tor etmish.

Ya'ni:

Agar qo'shiqchining nolasi bazm ahliga jon bersa, uni ruhlantirsa, shubha yo`qki,

Navoiy jonining iplarini eshib, uning changidagi torlarni tizgandir.

She'r–ilohiy ne'mat. Unga musiqa bog'lanib, xush ovoz bilan kuylanishi esa el orasida birdek baham ko'rilishini ta'minlab beradi. Endi ana shu ne'mat ta'siridan tinglovchilar jonlansa, ruhlari orom topsa, bu poklanish uchun bir vosita bo'layotgan changning torlari shoirning jon rishtalari bo'lsa, ne ajab?! Zero, mug`anniy qo'shig`ining so`zlari shoirning qalb qo`ridan yaralgan. Qalbdan yangragan navoning yana qalbgaga borib aks sado berishi shundan.

Yana bir o`rinda Navoiy yozadi:

Ey mug`anniylar, Navoiy mast edi, kech uyg`onur

Oni uyg`otmoqqa bir dilkash tarannum aylangiz.

Savol tug'iladiki, nega kech uyg'onishini sezayotgan Navoiy uyg`otmoq uchun mug`anniyni chorlab, undan bir dilkash qo'shiq istayapti?Bilamizki, uyqu–bu g`aflat.G`aflat esa odamzotga o`zligini unuttiruvchi bir illatdir.Uzoq uxlab

g`aflatga botishdan xavotirga tushgan Navoiy bundan qutulmoq uchun diltortar taronasidan hushyor tortish istagida mug`anniyni kuylashga undayapti. Zero, uning kuyi shoirga o`zligini eslatadi. O`zligini yodda saqlagan inson esa har vaqt g`aflatga botishdan tiyiladi, hayotga ziyraklik bilan qaraydi.

Mug`anniy surude chiqor dilnavoz,

Bo`lub ahli kashmirdek sehrsoz.

Ey mug`anniy, shunday yoqimli bir qo`shiq kuylaginki, u bamisoli Kashmir ahlidek sehrlovchi bo`lsin.

Agar nag`ma bas qilmoq etsang havas,

Hamul jon gum bo`lmayin qilma bas.

Agar kuylashni tugatmoqchi bo`lsang, shu jom yo`q bo`lmaguncha sabr qil.

Navoiy agar topsang ul nav jom,

Nekim bodadin o`zga ichsang harom.

Ey Navoiy, shu jomdan boshqasi-yu, bu bodadan o`zgasi senga harom.

Xitob etga sen jomi boqiy ani,

Vale tutsa gulchehra soqiy ani.

Shunday ekan bu jomni boqiy deb anglagin, ammo buning uchun jomni gulchehraning o`zi tutishi, ya`ni uning o`zi soqiylik qilishi darkor.

Ushbu baytlarda ham Navoiy ijodida kuy may kabi ramziylik ifoda etganini fahmlab olish mumkin. Tasavvur qilaylik tabiat qo`ynidasiz: bir yoqda mug`anniy Kashmir ahlidek sehrlovchi, yoqimli, diltortar bir qo`shiqni maromiga yetkazib ijro etmoqda; bir yoqda qadahlar to`la may-u yana uni go`zallikda tengi yo`q bir gulchehra quyib turibdi, ya`ni sizga soqiylik qilmoqda. Agar shu holat bir muddatga o`tib ketgulik bo`lsa-da, uning qahramoni o`sha vaqt davomida

yelkasidagi bor tashvishlarni, umuman, bu dunyoni unutadi, ko`ngil qirg`oqlarida zavq-ushavq oshib toshadi.

“Ey malomat shevalik...” deb boshlanuvchi g`azalda shoir oshiqlik yo`lidagi bir qancha qiyinchiliklarni keltirib o`tadi-da, maqta`ga borib quyidagicha yakun yasaydi:

Hajrdin o`ldi Navoiy, soqiyo, tut jomi may,

Ey mug`anniy, sen navo ohangida qo`psa qo`buz.

“Hajrdin o`lgan Navoiy” bejizga soqiy-u mug`anniyga murojaat etayotgani yo`q. chunki shoir u ikkisining may-u ohangida kishini jonlantiruvchi, unga ruh beruvchi bir quvvat borligini yaxshi biladi.

Yana bir o`rinda Navoiy mug`anniyga qarata shunday deydi:

E qalandarvash mug`anniy, gar Navoiy ko`nglini

Istasang har lahza behol aylamak tuzgil qo`buz.

Ya`ni: ey qalandarsifat xonanda, agar Navoiy ko`nglini har lahza behol bo`lishini istasang, qo`buzingni sozla.

Qo`buz—mashhur g`ijjaksimon cholg`u asbobi.

Ajablanarli jihati shundaki, avvalgi baytda shoir behush holatda bo`lib, mug`anniydan qo`buzini sozlab ruhlantiruvchi, jonlantiruvchi kuy so`ragan bo`lsa, bu baytda qo`buzining ohangidan behalovat ettiruvchi navo chekishini so`ramoqda. Umuman, Navoiy kuy qo`shiqlarning vaziyatga qarab kayfiyat ulashishini nozik his etgan holda bu hodisani o`z g`azallarida go`zal badiiy ohanglarda kuylagan hassos shoirdir.

Demak,Navoiy talqinida musiqaga oid tushunchalar o`zining lug`aviy ma`nolari bilan birga ba`zi o`rinlarda “badiiy so`z; ijod”, ba`zi o`rinlarda

tasavvufiy ma'nodagi may bilan teng qo'yilib, o'ziga xos ramziy ifodalarni ham beradi.

II bob. Badiiy mahorat va estetika uygʻunligi.

II.1. Navoiyning kuy bilan bogʻliq estetik qarashlari.

Bundan salkam olti asr avval yashab ijod etgan Navoiyning musiqa borasidagi qarashlari qanday edi? Ul zotning nafosat olamida kuyning qanchalik oʻrni bor? Bu savollarga ilk javoblarini “Mahbub ul-qulub” dan topish mumkin:

“Mutribi tarab afzo, mugʻanniyi gʻamzudo – ikkalasiga dard-u hol ahli jon qilurlar fido.

Ulki koʻrguzgay muloyim tarona-u nagʻam, agar eshituvchining hayoti naqdi anga fidoboʻlsa ne gʻam”

Zamonaviy psixologiya musiqaning insoniyat hayotidagi ahamiyati haqida bahs yuritir ekan, uning farzandlar tarbiyasi, ularning taqdirida tutgan oʻrni sezilarli darajada ekanligi, shuning uchun har qanday turdagi, ayniqsa, rok, rep kabi yoʻnalishlardagi qoʻshiqlarni eshitavermaslik, aks holda bu befarqlik ayanchli hollarga olib kelishi mumkinligi haqida butun bashariyatni ogohlantirmoqda. Aksincha, milliy, klassik ruhdagi kuy-qoʻshiqlarni tinglash insonni kamolot sari yetaklashi mumkinligi ham eʼtibordan chetda qolmasligi kerak. Ana shularning barchasi haqida salkam olti asr avval Navoiy hazratlari oʻzining dohiyona qarashlarini bildirib ketadi:

“Har mugʻanniyki, dardomandonaroq nagʻma chekar, aning zaxmasi zaxmliq yurakka korgarroq tegar. Otashin yuzluk mugʻanniyki, halqidin muloyim surud chiqargʻay, hol ahlining kuygan bagʻridin dud chiqargʻay. Muloyim mutribki, taʼb va fahm anga yor boʻlgay, odami koʻngli toshdin boʻlsa anga zor boʻlgʻay, xususanki, ham aytgʻay va ham chalgʻay, koʻngul mulkiga ne qoʻzgʻolonlarki solgʻay.

Suluk ahlig`a bir maxuf yer bu manzildurkim, anda ham kamol, ham nuqson hosildur. Solik bu yerda bir muhlik oh bila ham maqsudg`a yetibdur va bir na`rayi jonkoh bila yillar qazg`ang`ani ham ilgidin ketibdur”²⁹.

Zahiriddin Muhammad Bobur ta`kidlaganidek. “ahli fazl va ahli hunarg`a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma`lum emaskim, hargiz paydo bo`lishi bo`lg`ay... yana musiqiyda yaxshi nimalar bog`latur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur”.

Darhaqiqat, Navoiy homiyligi ostida taraqqiy topgan ilm ahli orasida musiqa bilimdonlarining o`rni bo`lakcha edi. Ma`lumotlarga ko`ra, qonun chalishda tengi yo`q sozanda Hofiz qozoq Muhammad, mashhur gijjakchilar Said Ahmad va Shohquli, nay chalishning ustasi Shayxiy Noiy hamda ud ustasi Husayn Udiylar Navoiyning ham moddiy, ham ma`naviy ko`magi bilan shuhrat qozonganlar.

Yana zamonasining buyuk mutafakkir shoiri hisoblangan Abdurahmon Jomiy ham “Risolai musiqiy” asarini shogirdi Navoiyning talab va taklifiga binoan yozganligini alohida ta`kidlaydi:

Nafs, tan, ilmu jon berding xudovand,

Jonlarni tanlar bilan qilib payvand.

Agar aytuvchi beparvo desa “tan tan”,

Quyida ushbu tanlar ayri jondan.

Tani bejonga joy xok bo`lgani yaxshi,

Tiriklar ulardan pok bo`lgani yaxshi.

²⁹Alisher Navoiy “Majolis un- nafois”

Jomiyning risolasini o`qib chiqqan Navoiy: "... bu fanda andoq munaqqah va mufid risola yo`qdur", - deb baholagan edi. Ma'lumki, biror mavzudagi ilmiy asarni o`qib, unga izoh berish uchun kishida yetarlicha ilm bo`lishi kerak. Navoiyning musiqaga bu qadar mehr berishi bejizga emas, bu ilmga bo`lgan muhabbat mutafakkir shoirning qon-qoniga singib ketgan edi. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro"da uqtirishicha, Navoiy ona tomonidan amrzoda Shayx Abu Said Changning nabirasi edi, ya'ni shoirning bobosi chang sozini chaluvchi mohir sozanda bo`lgan. Tog`asi Muhammad Ali G`aribiy ham zamonasining mashhur musiqashunos olimi bo`lgan. Mashhur tarixchi Xondamir bergan ma'lumotlarga ko`ra, G`aribiy ham musiqa ilmiga oid bir risola yozgan.

Buyuk shoir g'azallaridagi yoqimli musiqiylik ham fikrlarimizni dalillaydi. Aytishlaricha, Navoiyning

Din ofati bir mug`bachai mohliqodir

mayxora-u bebok

Kim, ishqidin oning vatanim deydi fanodur

sarmast-u yoqam chok

—deb boshlanuvchi mustazodiga bastakor Abdulloh Marvarid bir kuy bastalagan. O`sha kezlarda Hirotida bu kuyni miriqib tinlamagan, yod bilamagn va hirgoya qilmagan odam topilmas edi. Bir bazmda hofiz shu mustazodni kuylayotganda qo`shiqning ta'siri kuchliligidan majlis ahli o`z yoqalarini yirtgan ekanlar. Ushbu mustazodning bu qadar ta'sirchan chiqishi uning vaznidagi yuqori musiqiylik bilan bog`liqdir. Chunki, Navoiy aruzning yetuk bilimdoni edi. Ustoz shoir atrofidagi ba'zi shoirlarni aruz ilmining sir-u asrorlarini yaxshi bilmasligi hamda musiqadan bexabarligi bois she'r vaznlarini buzib yozayotganlarini "Majolis un-nafois"da xolis tanqid qiladi. Ularning aruzdagi musiqiylikni nozik idrok qilmasdan turib, mukammal she'r yoza olmasliklarini qayta-qayta uqtiradi.

Shuningdek, Binoiyning “Risola dar musiqiy”, Husayniyning “Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy” asarlari ham Alisher Navoiy rahnomaligi ostida yozilgani mualliflar tomonidan e’tirof etilgan. “Boburnoma” da ham quyidagi tarixiy asoslar borki, ular ham fikrimizni quvvatlaydi:

“Movlono Binoiy... burunlar musiqiydin bexabar ekandur, bu jihatdin Alisherbek ta’na qilur ekandur. Bir yil Sulton Husayn Boyqaro Marvg’a qishlay borg’onda Alisherbek ham borur. Binoiy Hirotda qolur. O’qish musiqiy mashq qilur, yozg’onga ancha bilurkim, ishlar bog’lar. Yoz Mirzo Hiriyl kelganda Savt va naqsh o’tkarur. Alisherbek taajjub qilib, tahsin qilur”³⁰.

“O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asarida Fitrat “Qari Navo” kuyi haqida shunday yozadi:

“Bu kuyning juda eski bir kuy ekanini har tomonda so’zlashib turur, Farg’ona va Toshkentda ham bu kuyni “Qari Navo” derlar. Biroq bu kuyning nomi yanglishdir. Buxoroning eski musiqashunoslari asarida bu kuyni Navoiy asari bo’lg’oni so’ylanadir. Mana shu ma’lumotlardan so’ng “Qari Navo” kuyining Alisher Navoiy bo’lg’oni ehtimoli kuchlanib qoladir.”³¹

Zero, zamonasining tarixchi olimlari ma’lumotlariga ko’ra, Navoiy “musiqiy ilmidan yaxshi xabardor” bo’lgan. U musiqani o’z davrining yetuk musiqashunos olimi Xoja Yusuf Burxondan o’rgangan. Ulug’ mutafakkir qonun chalishning ustasi bo’lgan ekan. Navoiyning musiqa ilmi bobida yaxshi bir risola yozganligi ham e’tirof etiladi, ammo bu risolaning taqdiri haligacha ma’lum emas.

Shoirning kuyni yaxshi idrok etishi, bu borada ham nozik did sohibi ekanligini uning g’azallaridagi musiqiylikning yuqori darajada ekani ham isbotlaydi. Ana

³⁰R. Abdurahmonov va boshq. “Navoiy va uning musiqiy olami” T. 2012.

³¹R. Abdurahmonov va boshq. “Navoiy va uning musiqiy olami” T. 2012.

shundan ham o'z davrida siyohi qurimasdanoq maqomga aylangan asarlar – Munojot, Ushshoq, Aylagach, Mo'g'ulchai dugoh, Koshki, Topmadim, Qaro bo'lubtur, Ko'rmadim kabi qo'shiqlar mana bir qancha vaqt o'tsa-da o'z tinglovchilarini yo'qotgani yo'q.

Go'yo bu g'azallar o'z kuylari bilan quyilib kelgandek, shoir dildaftariga. Ana shular haqida o'ylarkanmiz, Zayniddin Vosifiyning “Oliy hazrat amir Alisher musiqa ilmida ham shu qadar mahorat hosil qilganlarki, agar Abu Nasr Forobiy hayot bo'lganlarida unga shogirdlik sirg'asini taqib olardi”, –degan so'zlari yodga tushadi. Zero, Alisher Navoiy Forobiy ishlab chiqqan balog'at ilmini egallashdagi har bir olim zimmasida turuvchi uch bosqich:

1. Har bir bilimning usul va qoidalarini to'la bilishi lozim.
2. Shu bilimning turli holatlarida hosil bo'lgan usul va qoidalarning natijalarini sharh va izoh etishga qobil va iste'dodli bo'lishi kerak.
3. Musiqa (san'ati) haqida noto'g'ri nazariyaga ega bo'lgan yozuvchilarning noto'g'ri nazariyalarini tanqid eta bilsin, xato va noto'g'ri nazariyalar o'rtasidagi farqni ko'rsata bilsin, hamda xatolarini oydinlashtira olsin”, kabi masalalarga qattiq amal qildi.

Ushbu fiklarimizni “Boburnoma” dan olingan quyidagi parcha ham tasdiqlaydi:

“Binoiyning musiqashunoslik borasida yutuqlarini Navoiy “Majolis un-nafois” da va “Xamsat ul-mutahayyirin” da olqishlaydi. Amirning iltifotlari soyasida to'liq qimmatga ega bo'lib, ul hazratning nom-sharaflariga bag'ishlangan “Balog'at nishonali kitoblar va fasohatli tasniflar” qatorida nazariy ma'lumotini orttirmoq uchun to'rt buyuk ustoziga to'rtta musiqiy risola yozdirganini, risolalarni fanning ta'lim yog'idan yararlik topmag'ani uchun eng so'ng Mullo Jomiydan so'rab, beshinchi risola yozdirg'onini xabar beradi”.

Prezidentimiz Islom Abdugʻaniyevich Karimov taʼkidlaydilar: “Vatanimiz kelajagi xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obroʻ-eʼtibori avvalambor farzandlarimizning oʻqib-oʻsib, ulgʻayib, qanday inson boʻlib hayotga kirib borishiga bogʻliqdir...”

Shu oʻrinda yurtboshimizning fikrlariga qoʻshimcha ravishda yoshlarimizning maʼnaviy tarbiyasida ularning qanday turdagi kuy-qoʻshiqlar shinavandasi ekanligi alohida ahamiyatga ega ekanligini aytib oʻtish joiz.

Navoiynning kuyga boʻlgan ishtiyoqi bejizga emas, chunki ulugʻ mutafakkir oʻziga ustoz deb bilgan Forobiy, Jaloliddin Rumiy. Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiylarning barchasi oʻz ijodida musiqa sohasiga alohida eʼtibor qaratgan. Xususan. Nizomiy Ganjaviy “Xisrav va Shirin” dostonida oʻsha davrlarda Eronda mahhur boʻlgan oʻttizta kuyning nomini keltiradi. Dostonda bu kuylar musiqa olamida tengi yoʻq mashshoq Borbad tomonidan kashf etilgani eʼtirof etilgan boʻlib, ular quyidagicha nomlanadi:

1. Ganji bodovard	11. Oroyishi Xurshid	21. Mehrigoniy
2. Ganji gov	12. Nim roʻz	22. Marvoyi nek
3. Ganji suxta	13. Sabz dar sabz	23. Shabdiz
4. Shodirvoni marvarid	14. Qufli Rumiy	24. Shabi Farrux
5. Taxti toqdisiy	15. Sarviston	25. Farrux ruz
6. Noqusiy	16. Sarvi saxiy	26. Gʻunchai kabki dariy
7. Avrangiy	17. Noʻshinboda	27. Nagʻchirgon
8. Huqqani Qobus	18. Romishijon	28. Kiyni Siyovush
9. Mohbarkuhon	19. Nozi navroʻz	29. Kiyni Eraj
10. Mushkdona	20. Mushkoʻya	30. Bogʻi Shirin

Xisrav Dehlaviyning “Xisrav va Shirin”ida esa bu kuylardan ikkitasi quyidagi munosabat bilan tilga olinadi. Bayon qilinishicha, Xisravning odamlari olis dengizda xazinalar to`la bir necha kemalar kimsasiz sargardon yurganining guvohi bo`lishadi va bu haqida shohga yetkazishadi. Voqeadan xabar topgan Xisrav kemalardagi bor boyliklarni mamalakat xazinasiga keltirishlarini buyuradi. Shohning farmoni amalga oshirilgach yana uning buyrug`i bilan bu xazina sharafiga bir bazm uyishtiriladi. Ayni shu bazmda Borbad o`zining “Ganji bodovard” (shamol olib kelgan xazina) deb nomlangan yangi kuyini shohga tuhfa etadi. Borbadning bu kuyi Xisravga ma`qul keladi va musiqa sadolaridan xushhol bo`lgan shoh mashshoqqa “Shodirgoni marvarid” (atrofi marvarid bilan o`raglan chodirlar)ni hadya qiladi. Iste`dodli musiqashunos shu nom bilan yana bir kuyni kashf etib, uni ham shohga taqdim etadi. Shunday qilib, “Ganji bodovard” va “Shodirvoni marvarid” kuylarining yaratilish tarixi ana shunday kechadi.

Ma`lumotlarga ko`ra, Navoiy musiqaga bo`lgan benihoya muhabbati bois yuqoridagi kuylar muallifi eronlik mashhur musiqashunos Borbad Marvaziy ijodiga juda qiziqqan va uni zo`r ishtiyoq bilan o`rgangan

II. 2. Shoir badiiyatida estetik qarashlarning o`rni.

Avval ham aytganimizdek, Navoiy musiqani yaxshi idrok etgan. Shoirning kuy bilan bog`liq estetik qarashlari uning baddiiyatiga ham o`z ta`sirini o`tkazgan. Ushbu fikrlarimizni “Ey mug`anniy...” deb boshlanuvchi g`azalning badiiy-g`oyaviy tahlili orqali dalillashga urunib ko`ramiz:

Ey mug`anniy, chun nihon rozim bilursen, soz tuz,

Tortibon munglug` navo sozing bila, ovoz tuz.

Ey sozanda, yashirin sirimni bilganing bois, (undan) soz tuz,

Sozing bilan mungli navo chekarkan, qo`shiq ham ayt.

Navha ohangi tuzub, og`oz qil mahzun surud,

Ul surud ichra hazin ko`nglumg`a maxfiy roz tuz.

Nola chekib, mahzun bir qo`shiqni boshla-yu,

Bu qo`shiq ichra hazin ko`nglim tomon maxfiylik kashf et.

Tuzma og`oz aylabon Farhod-u Majnun qissasin,

Desang el kuysun, mening dardim qilib og`oz tuz.

Bu tuzgan qo`shig`ingni Farhod-u Majnun qissasidan boshlama.

Agar uni tinglab el kuysin desang, mening qissasamdan muqaddima tuz.

Istasangkim, nag`mang ichra ko`p xaloyiq o`lmagay,

Ul ikavdin ko`p, vale mendin tarone oz tuz.

Tuzgan kuying somelari ko`p bo`lmasligini istasang,

U ikkisidan, ya'ni Farhod-u Majnun qissasidan ko`p, mening qissamdan esa oz tuz.

Gar mening holim desang tuz barcha dostoni niyoz,

Dilbarimdin nag`ma soz etsang, surudi noz tuz.

Agar mening dardim kuylasang, ehtiyoj bor dostonlarning barchasini kuyla,

Mabodo dilbarim haqida so`z desang, yaxshisi noz kuyini chal.

Chun bu gulshanda nasimin qilg`ali qo`ymas xazon,

Gul firoqi sqvtin, ey bulbul, qilib parvoz tuz.

Bu gulshan ichra tong shabadasidek sayr etgani xazon yo`l bermaydi,

Shunday ekan, ey bulbul, guldan ayrilish kuyini chalib, parvoz qil.

Bazm aro o`rtar Navoiyni nihon munglug` surud.

*Ey mug`anniy, chun nihon rozim bilursen, soz tuz*³².

Bazm aro Navoiyni bu pinhoni, mungli qo`shiq qiynaydi, unga azob beradi, ey sozanda, yashirin sirimni bilganing bois,(undan) soz tuz.

G`azal matla'sidan maqta'siga qadar shoirning mug`anniyga xitobi asosida qurilgan. Matla'dan anglashiladiki, lirik qahramon va sozanda orasida pinhona bir ulfatlik bor, ya'ni uning qismatidagi ayrim chizgilar mug`anniyga ayon. Ana shundan qismat sohibi o`z qissasini bir kuyga solinishini istaydi va bu navo bir qo`shiq bo`lishi istagida, hofizni ham chalish, ham aytishga undaydi. Lirik qahramon bu qo`shiq mungli ohangda aytilib, hazin ko`ngilga sirli bir yo`l topishi ilinjida. Uning fikricha, qo`shiqchi bu maqomi bilan elni kuydirmoqchi, uni o`ziga jalb etmoqchi bo`lsa, Farhod va Majnun qissasini kuylashi shart emas, balki shoirning qissasi ularnikidan g`amliroq. Shuning uchun qo`shiq tinglovchilarining ko`p yoki oz bo`lishi bu qissalarning qay biri kuylanishiga bog`liq. Shoir shuni tilaydiki, agar mug`anniy uning dardini kuylamoqchi bo`lsa, bari dostonlarni kuylasin, agar so`z mashuqadan ketar bo`lsa, noz kuyini chalgani ma`qulroq. Bu gulshan ichra erta tong shamolidek sayr qilgani xazonlar yo`l bermagani yanglig` yor ham diydorin nasib etmaydi, shunday ekan, ey bulbul, gulingdan ayrilish kuyini chalib, ko`klarda parvoz qil. Maqta'dan oldingi bu baytda nido san`atini vujudga keltirgan bulbul so`zini bir necha ma`noda tushunish mumkin. Agar misradagi gul so`zi e`tiborga olinsa, bulbul o`z ma`nosida. Agar g`azal boshidan oxiriga qadar kuy-u navoga bag`ishlanganligi va undagi har bir baytda mug`anniyga xitob qilinayotgani hisobga olinsa, "qo`shiqchi" ma`nosida, agar misradagi gul "Yor" ma`nosida anglansa, "Lirik qahramonning o`z-o`ziga murojati" ma`nosida ham anglandi. Asar maqta'sida esa mungli surud- qo`shiqni tinglab azobl原因 Navoiy bazm ichra mug`anniyga takror xitob qiladi. "Ey

³² Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" – "Badoe ul-vasat" o`n besh tomlik, 3-tom. T.1963. 121-b.

*mug`anniy, chun nihon rozim bilursen, soz tuz*". Ma'lum bo`ladiki, g`azalda ra'ddi matla' san'atidan ham mohirona foydalanilgan va ayni qaytarilgan misradagi g`azal qofiyalanishi uchun asos bo`luvchi "soz " so`zi bir ma'nosi bilan kuyga borib taqalsa, ikkinchi tomondan taklifga binoan kuylangan qo`shiqning o`ta mungliligidan benihoya o`rtangan Navoiy mug`anniyga qayta murojaatidan kelib chiqqan holda "muvofiq, yoqimli" kabi ma'nolarni ham anglatib, iyhom san'atini vujudga keltirgan, deyish mumkin. G`azal sharhidan ma'lum bo`ladiki, shoir musiqaga oid *mug`anniy, soz, navo, ovoz, ovoz tuzmak, ohang, surud, nag`ma, tarona, savt* kabi so`zlarni o`rnini topib qo`llagan.

Guvohi bo`lganimizdek, yuqoridagi g`azal boshdan oyoq kuy-u navoni tarannum etgan. Navoiyning she'riyat bo`stonida yana bir qancha g`azallari borki, ularning ayrim baytlari mavzumizga dahldor bo`lganligi uchun tahlil qilishga kirishdik:

G`ussa changidin navoye topmadim ushshoq aro,

To Navoiydek asir-u benavo bo`ldum sanga.

"Bo`ldum sanga" radifli g`azalning maqta'si bo`lgan ushbu bayt Navoiyning shohbaytlaridan biridir. Zero, bu bayt shakli bilan ham, mazmuni bilan ham o`quvchini hayratga soladi:

Navo so`zi omonim ekanligi, ya'ni bu o`rinda bir ma'nosi bilan "kuy, tarona", bir ma'nosi bilan "nasib, baha" tushunchalarini ifodalayotgani e'tiborga olinsa, iyhom; Navoiy va benavo so`zlari zid qo`yilishi bilan tazod; navoye, Navoiy, benavo so`zlari o`zakdosh ekanligi hisobga olinsa, ishtiyoq san'atlari baytga ajib lisoniy joziba bag`ishlab turibdi. Ta'kidlash joiz, baytning g`oyaviy jihati uning ana shunday g`ozal shaklidan ham hayratlanarlidir. Navoiy "Nasoim ul-muhabbat"da Jaloliddin Rumiy haqida yozar ekan mavlononing musiqani idrok etish haqidagi falsafiy fikrlarini ham berib o`tadi. Ushbu parcha yuqoridagi shohbaytning mazmunini teranroq anglashda yordam bergani bois uni eslab

o`tishni maqsadga muvofiq deb bildik: “Alar der emishlarki, rubob uni behisht eshigining sariridir. Agar bizga ondin zavq va xushhollik bo`lsa, jihat budur. Bizga nechuk ul zavq va hol bo`lmas? Alar debturlarki, siz ul eshikning yopqonining saririni eshtursiz, biz ochqonining, sabab budurki, bizga zavq va hol bo`lur va sizga yo`q”. Ushbu parchadan tegishli xulosa chiqargan holda yuqoridagi baytining nasriy bayoni va g`oyaviy mazmunini keltiramiz:

Senga to Navoiydek asir-u muhtoj bo`lmaguncha

Oshiqlar o`rtasida bu qayg`u changidan bir navo topolmadim.

Shu o`rinda “Sabayi sayyor” dostonining bosh qahramoni Diloromning changchi qiz obrazi sifatida gavdalantirilgani ham alohida e`tiborga loyiq. Ishq yo`lida bor zahmatlarni chekib, o`rtanayotgan oshiqlar uchun qayg`uli navolar taratayotgan chang dard ustiga chipqondek tuyulishi mumkin. Ammo bu ishq gadolari Yorga Navoiydek asir, Navoiydek muhtoj bo`lsa-chi?! Bunday holda changing qayg`uga bottiruvchi alamli sadolari oshiqqa “Behisht eshigining ochqonining sariri”, ya`ni “Visol onlariga bir necha qadam qolganidan darak beruvchi nido” bo`lib tinglanadi. Demak, musiqani tushunish, badiiy adabiyotni o`qib, undan bahra olish uchun kerak bo`ladigan nozik idrok va estetik did o`quvchi va tinglovchilar saviyasini belgilab beruvchi zaruriy omil ekan. Ushbu xususiyatlarni o`zida jamlagan tug`ma iste`dod egasi Navoiy quyidagi baytlarni yozarkan qanchalar haq edi:

Baski, Navoiy ayladi dard surudida navo

Ahli tarabni yig`latur majlisining taronasi.

Ya`ni: agar Navoiy dard qo`shig`i ichra bir navo aylasa, bu tarona majlisda kayfi chog`, xursand holda o`tirgan barchani yig`lata olishdek bir kuchga egadir.

Yoki:

To tuzdi Navoiy oyati ishq,

Ishq ahli aro navo bo`libdur.

Ushbu faxriyada ta'kidlanganidek, haqiqiy ishq otashida toblangan, sham yanglig` o`zi yonsa-da atrofdagilarni yoritgan Navoiyning bari yozganlari ishq ahli uchun bir oyat kabidir. Haqiqatan, ipga tizilgan marvarid shodalaridek bu purma'no so`zlar jamiki oshiqqlarning madhiyasi bo`la oluvchi bir navo kabidir!

II.3. Shoir mug`anniy nomalarining badiiy jozibasi.

“Xamsa” dostonlarining ham bir necha o`rinlarida kuy-u navo bilan bog`liq misralar borki, ularda Navoiyning musiqiy olamini yanada yaqinroq va yaxshiroq kashf etgandek bo`lamiz. Xususan, “Saddi Iskandariy”ning yigirma olti o`rnida Navoiyning mug`anniyga murojaati keladi. Navoiyshunos olimi Suyima G`aniyeva ana shu baytlarninglarning barini bir o`ringa jamlab: “shoirning mug`anniy nomalaridir”, - degan fikrni o`rtaga tashlaydilar. Bu ta`rif o`zini oqlaydi. Zero, bu baytlarda shoirning kuy-u navo bilan bog`liq butun estetik qarashlari she`riy shaklda mug`anniyga qarata yo`llanadi. Bu nomalardan birinchisi dostonning sakkizinchi bobidadir:

Mug`anniy, surudi harifona chek,
Bir un birla tek turmag`il, yona chek!
Dema so`z, meni ayla mast-u xarob
Ki, tongla so`z ayturg`a qilg`um shitob!
Navoiy necha soqiyi shangdur
Mug`anniy dog`i dilkash ohangdur.
O`zing asragaysen ichar chog`da roh
Ki, kulli ish olingg`a tushmish saboh!³³

³³ Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.64-b.

Ey mug`anniy, sherikchilikda bir qo`shiq kuyla, bir marta aytarkan jim turmagin, yana kuyla! Kuylayotgan qo`shig`ingda matn bo`lmasin. Kuyingning o`zi bilan meni mast-u xarob aylaginki, tongda bu qo`shig`ing so`zlarini yozish uchun o`zim shitob qilay! Ey Navoiy, soqiyi shang-o`ynoqi mahbubalar qancha ko`p bo`lsa-da, bilginki mug`anniy ularning barchasidan ham a`lo - bir diltortar ohangdir go`yo! Shunday ekan saboh roh-may ichar chog`ingda oldingga tushadigan kulliyot (bu o`rinda “Saddi Iskandariy” nazarda tutilmoqda) ni o`zing asragaysan! Ushbu baytlardan shuni anglash mumkinki, Navoiy yozgan dostoniga mug`anniy tomonidan bir kuy bog`lanib, uning xalq orasida keng yoyilishini istayapti.

Mug`anniyga atalgan keyingi nido dostonning Husayn Boyqaroga bag`ishlangan bobi yakunida bo`lib, unda shunday yoziladi:

Mug`anniy! Chu gulshanda bazm o`ldi rost,

Budur xostkim tuzsang ohangi “Rost!”

U ohangdin bizni qilsang xushon

Ki, bo`lsak sarandoz-u domanfishon!

Navoiy, chu bazm o`ldi orosta

Qadahdin tutub mohi nokosta.

Bu shohona majlis aro boda ich,

Valekin qachon tutsa shahzoda, ich.³⁴

Birinchi baytdagi rost so`zi tajnis san`atini yuzaga keltirgan: Ey mug`anniy, gulshanda bazm rost bo`lganda, ya`ni bazm tashkillashtirilgan paytda “rost” kuyini

³⁴ Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.70-b.

chalganing juda mos keladi! Bu tuzgan kuying bilan bizni shod-u xurram qilsang,
kayfimiz chog`-u zavqdan o`zimizni tuta olmasak!

Yana Sulton Badiuzzamon madh etilgan bobda ham shunday keladi:

Mug`anniy, surude chek andoq baland

Ki, tushsun sipehr ahlig`a dilpisand!

Unung savtini oliy ovoza et,

So`z ovozasin ko`ngluma toza et!

Navoiy, so`z ayturda farzona bo`l

Chu ish boshingga tushdi mardona bo`l !

Bahona tariqini barbod qil,

Surub doston, nukta bunyod qil!³⁵

Ey mug`anniy, el orasida qadri baland bir qo`shiq kuylaginki, u butun dunyo
ahliga xush kelsin! Bu qo`shig`ing ovozini yuksak pardalarda tuz, so`zining
dovrug`ini ham ko`nglumga maqbul tuz. Ey Navoiy so`z aytishda farzona bo`lgin,
nogahon boshingga ish tushganda mardona bo`lgin, turli bahonalar qilishni bas
qilginda, dostonni davom ettirgan holda purma`no hikmatlaring bunyod qilgin.

Dostonning Ajam shohlaridan Peshdodiyalar sulolasi haqidagi bobi so`ngida
ham mug`anniyga noma yo`llanadi:

Mug`anniy, "Ajam" ichra tutqil nag`am,

Sig`ur anda zikri "Mukuki ajam".

Alar Peshdod erkanin yod qil,

³⁵ Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.73-b.

Manga sen dog`i tarki bedod qil.

Navoiy, ajab yerga yetmish so`zung,

Ne eldur bular xud bilursen o`zung!

Adab birla shohona sog`ar sumur

Dimog`ing chu garm o`ldi afsona sur.³⁶

Birinchi misradagi “ajam” so`zida o`sha vaqtlarda Xuroson va Movarounnahrda mashhur qadimiy kuylardan birining nomi nazarda tutilmoqda: ey mug`anniy, “Ajam” kuyini chal, bu kuy aro Ajam shohlari zikrini jo qil, ularning Peshdodlardan ekanini yodda saqlarkan, menga zulm qilishni tark qil! Ey Navoiy, so`zing – dostoning ham ajib bir yerga yetdi, zero madh etayotganing qanday xalq ekanini o`zing bilasan. Endi odob bilan bir qadah shohona may ichgin va dimog`ing isidim degan zahoti doston yozishni davom ettirgin.

Shuningdek, Kayoniylar haqidagi bob yakunida ham shunday keladi:

Mug`anniy, tuzub nag`mai Pahlaviy,

Surude aning birla chek ma`naviy!

Bu shahlarki, nazm ichra qildim savod,

Surudun aro sen dog`i ayla yod.

Navoiy may ich dog`i bo`l rahshunus,

Bu shahlardin et o`z ishingni qiyos!

Jahondorlarni jahon qilsa past,

Topa olmag`aymu gadolarg`a dast.³⁷

³⁶Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.77-b.

Ey mug`anniy, “Pahlaviy” nag`masi (bu o`rinda O`rta Osiyo xalqlari orasida mashhur bo`lgan qadimiy kuylardan biri) ni tuz. Bu kuy bilan birga ma`naviyni chal. Men nazmim ichra yozgan bu shohlarni sen ham kuying aro yana bir yod qil. Navoiy, may ich-u yo`lingda adashmagin hech, ushbu shohlar qismatidan o`z yo`lingni qiyos etgin, unutmaginki, ana shunday jahondorlarniki xor qilgan bu bevafo dunyo sendek gadolarga o`z xiylalarini qo`llolmaydimi?

Shoirning mug`anniyga qarata keyingi murojaati Ashkoniyar sulolasi haqidagi bobning so`ngidan o`rin olgan:

Mug`anniy bu shahlarki chekdim tiroz,

Alar yodig`a nag`ma chek dilnavoz

Ki, nag`mang bila bir qadah no`sh etay,

Dame nuktadin tilni xomush etay!

Navoiy bu shahlarki ko`rdi jahon,

Bukun barcha tufrog` arodir nihon.

Chu borig`a ulyon azimat durur,

Zamone xush o`lmoq g`animat durur.³⁸

Ey mug`anniy, bu shohlarning madhini so`z bilan ko`p ziynatladim, sen ham ularning yodiga yoqimli bir qo`shiq aytginki, uni tinglash bilan birga bir qadah may ichay va shu vaqt davomida nukta bunyod qilishdan, ya`ni purhikmat so`zlarni aytishdan bu tilimga bir oz dam beray! Navoiy, mana butun dunyoni kezgan ushbu shohlar bugun tuproq ostida yotarlar, shunday ekan, bu zamonda boriga shukur qilib, xursand holda yashash buyuklikdan dalolatdir.

³⁷ O`sha asar. 80-b.

³⁸ Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.82-b.

Mug`anniyni Ajam shohlari tarixini kuylashga chorlovchi so`nggi noma Sosoniylar madhiga bag`ishlangan bobning yakunida keladi:

Mug`anniy, surud aytibon rud tuz

Vafosiz jahon birla padrud tuz!

Chu ketmaklik andin erur noguzir,

Dame xushdil o`lmoq erur dilpazir.

Navoiy , bu yanglig` emish dahr ishi,

Vafo ko`rmamish hargiz andin kishi.

Kishilik budurkim, unutsang ani,

Chu tarking qilur, tark tutsang ani!³⁹

Mug`anniy, surud aytibon rud tuz. Ushbu misradagi *rud* so`zi shakldosh bo`lib, iyhom san`atini vujudga keltirgan. Ya`ni: ey mug`anniy, qo`shiq aytarkan uning musiqasini rud cholg`u asbobida tuz yoki ey mug`anniy, qo`shiq aytarkan uning ta`sirida bizlarni mast aylab, ko`zyoshlarimizdan daryo tuz! Shunday kuylaginki, bu bevafo dunyo bilan vidolashish ahdini tuzsin, zero, undan ketishimiz muqarrardir, shunday ekan, vaqtni xush o`tkazgan maqulroqdir. Navoiy, bu dunyoning ishlari shunday ekanki, undan kishiga vafo yetmas ekan. Odamiylik esa shunday xislatki, mabodo sen uni lahzaga bo`lsa-da unutar bo`lsang, u seni butunlay tark etar ekan.

Keyingi mug`anniynoma Shoh Iskandarning taxtga o`tirishiga bag`ishlangan bob xotimasida keladi:

Mug`anniy, qilib soz rudi nishot,

³⁹ Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.85-b.

Aning birla tuzgil surudi nishot
Ki, so`z taxtida bo`ldung oromgir,
Bo`lay tahniyat bazmida jomgir!
Navoiy, jahonning firibin yema,
Xirad olliyda naqsh-u zebin dema.
Chu davron ishi bevafoqliq durur,
Fuzun shohlig`din gadoliq durur.
Gadoyeki qayd o`lg`ay andin yiroq,
Muqayyad jahondordan yaxshiroq.⁴⁰

Ey mug`anniy, rudingni xursandchilik kuyini chalishga sozlagin va shu kuyga moslab zavq beruvchi bir qo`shiq aytginki, so`zlarni marjonlarga tizaverib oromimni oldirgan men – shoir bu qutlov bazmida, ya`ni Iskandarning taxtga o`tirish marosimida sening kuy-u qo`shig`ing tinglab, may ichar ekan, rohat olay! Ey Navoiy, bu dunyoning g`amini also yemaginki, uning ishi bevafoqlik qilishdan o`zgasi emas. va shohlikdan ko`ra gadolikning gashti yoqimliroqdir.

Yana Iskandarning Runga qarab qilgan yurishi bayonidagi bobda ham quyidagi misralar yoziladi:

Mug`anniy, navoda tuzub mo`tadil,
Navosozliq qil manga muttasil.
Qulog`imga dilkash sadoye yetur,
Meni benavog`a navoye yetur.

⁴⁰ Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.95-b.

Ey mug`anniy, mo`tadil bir navo chekkin-u, kuylashdan tinmagin. Qulog`imga dilkash sadoyingni yetkazarkan men benavo – bechorani navoga yetkazgin!

Iskandarshoh huzuriga kelgan Doro elchisi voqealari bayon etilgan bob yakunida yana bir mug`anniynoma bitilgan:

Mug`anniy, cholib garm hangoma tuz,

Surudungda ohangi “Shahnoma” tuz.

Chu ohangi kin ettilar ikki shoh,

Daler o`lsun ul nag`ma birla sipoh.⁴¹

Ey mug`anniy, kuy chalib bir yig`in tuz, qo`shig`ingni “Shohnoma” ohangida ayt. Toki bu ikki shoh – Iskandar va Doro bir-biriga kek saqlagan vaqtda sipoh sening kuy-u navongdan kuch olib botir, qo`rqmas bo`lsinlar!

Mug`anniyga yo`llangan keyingi noma Iskandar va Doro qo`shinlarining to`qnashuvi haqidagi bobdan joy olgan:

Mug`anniy, bugun nag`mai chang tuz,

Vale navha soz aylab ohang tuz.

Ki, dardimg`a tortib fig`on yig`layin,

Dame, o`ylakim, shisha qon yig`layin!⁴²

Ey mug`anniy, kel bugun chang sozida bir kuy chalgin, ammo sozingni sho`x sayratmasdan mungli bir ohangda chalgilki, kuy-u navongni tinglar vaqtda dard chekib, fig`on yig`layin, ko`zlarimdan yosh emas, shisha qon to`kib yig`layin! Ey Navoiy, bu jahonda vafo yo`qdur, chunki uning bilgan odat-u rasmi

⁴¹ Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.115-b.

⁴² O`sha asar 148-b.

jafodur—o`qdir. Shunday ekan, biriga vafo qilib, undan vafo kutmagin. Agar navo topishni—bahramand bo`lishni istasang, benavo, ya`ni yo`qsil bo`lgin.

Keyingi mug`anniy noma Iskandarning Doro yerlariga hukmron bo`lib, mamlakatni obod qilgani va Kashmir, Hind va Xitoy xoqonlarini tilab, ular huzuriga elchilar yuborgani haqidagi bobda bo`lib, unda shunday yoziladi:

Mug`anniy, degil hinduyi rexta,

Anga sehri kashmiri omexta.

Men ichganda chiniy ayog`ini olib

Degil savt ollimda chiniy cholib.⁴³

Ey mug`anniy, Hind kuyida bir qo`shiq aytginki, unda Kashmir ahlining sehri (tarixda Kashmirliklar sehragarlikning ustasi bo`lganligi naql qilinadi) ham qorishib ketsin. Men chin mayini ichar chog`imda esa sen ham chinchu bir kuy chalgin!

Iskandarning bir qancha shaharlarni fath etib, so`ng Kashmirda ketgani haqidagi bobda ham muallif mug`anniyga bir noma yo`llaydiki, biz bu baytlarni mavumiz talabi yuzasidan avvalgi bobda tahlil etgan edik.

Yana bir noma Iskandarning Aflotun yordami bilan Mallu yashiringan tilsimni ochgani va tilsim ortidagi Mallu o`z eli bilan yakson qilinib, uning o`rniga Feruzning taxtga ko`tarilishi to`g`risidagi bobdan o`rin olgan:

Mug`anniy hazin nag`ma bunyod qil,

Yigitlikning ayyomini yod qil

Ki, ul nag`madin toza hushe topay,

Sog`inib yigitlikni jo`she topay!⁴⁴

⁴³ Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.193-b.

Ey mug`anniy, hazin bir navo kashf et, bu kuying sadolari ostida yoshligimni yodga olay! Chalayotgan kuyingdan yoqimli ta`sir topay, yoshlikni sog`inib yana jo`shqinlik topay!

Mug`anniyga atalgan yana bir noma Iskandarning Hindistonga qilgan safari tafsilotlari yozilgan bobdadir:

Mug`anniy, tuzat nag`mayi rexta

Ani qil unung birla omexta

Ki, bir sabzi shirin yana Hind aro,

Mening ro`zgorimni qildi qaro.⁴⁵

Ey mug`anniy, “rexta” kuyini chalgin, bu kuyga moslab o`z ovozingda bir qo`shiq ham aytginki, bu hind aro bir pari mening boshimga yana g`avg`olar soldi.

Mug`anniy, kel-u chert turkona soz,

Maqomi “Navo”, yo`qsa “Turki hijoz”.

Navoiyning ashoridin necha bayt,

Mening hasbi holim topib turkiy ayt!

Navoiy, tutub fol–devonni och,

O`qurda dur-u la`l olamga` soch.

Mug`nniyg`a ham ayla ta`lim ani

Ki, qilsun surud ichra taqsim ani!⁴⁶

⁴⁴ O`sha asar. 222-b.

⁴⁵ Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.282-b.

⁴⁶ O`sha asar 314-b.

Yuqoridagi baytlar dostonidan joy olgan mug`anniy nomalar ichida alohida ahamiyatga egadir. Zero, unda shoir mug`anniydan turkona soz chalishini, yo “Navo”, yoki “Turki hijoz”ni kuylashini va o`zining she`rlaridan bir nechtasini olib, ularning ichidan hasbihol tarzida yozilganlarini saralab olishi hamda turkiy qo`shiq aytishini so`ramoqda. Shunday ekan, ey Navoiy fol tutib, ya`ni tavakkal qilib devonning bir sahifasini och va undagi yozuvlarni o`qirgan olamga dur-u la`l soch! Gahvar yanglig` bu satrlardan mug`anniyga ham ta`lim bergin, toki u ham bu durlarni o`z qo`shiqlariga taqsim etsin!

Ushbu satrlarga hamohang ravishda yozilgan yana bir mug`anniy nomada quyidagilar bayon etiladi:

Mug`anniy, ulug` yir sadosini tuz,

Bijir ko`kka piypo sadosini tuz!

Meni bir navo birla xushhol qil,

Jahon fikridin forig`ulbol qil !

Navoiy, ichib may eshitgil surud,

Ki bas, bevafo dur sipehri qabud

Ki, Xoqong`a gar juz jafo qilmadi.

Skandarg`a dog`i vafo qilmadi.⁴⁷

Ey mug`anniy, buyuk yir kuyini chalgin, bu yir bilan ko`klarga yetuvchi bir sado ham tuzgin. Tuzgan navong bilan meni xushhol qil, lahzaga bo`lsa-da dunyo tashvishlaridan forig` qil! Ey Navoiy, may ichib qo`shiq tinglagil, yetar ortiqki, bu charxi kajraftor bevafo ekan. Xoqongaki boshqa jafo qilmadi, demak, Iskandarga yana vafo qilmadi.

⁴⁷ Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.358-b.

Iskandarning nikoh kechasiga bag'ishlangan bazmida ham Navoiy mug'anniyga atab shunday yozadi:

Mug'anniy, tuzub chinga vaznida chang,

Navo chekki, hay-hay o'lang, hoy o'lang,

Desang senki: jon qardoshim, yor-yor!

Men ayтайki: munglug' boshim, yor-yor!

Navoiy, chu sarmanziling Chingadur,

Surudung dog'i sur aro chingadur.

Ayalg'ung necha yor-yor o'lg'usi,

Mening yig'larim zor-zor o'lg'usi.⁴⁸

Ey mug'anniy, changing sadosini chinga vazniga mosla va “hay-hay o'lang, hoy o'lang” ni aytib bir qo'shiq kuyla. Ashulangda “jon qardoshim, yor-yor!”, - degan vaqting men aytaman: “mungli boshim, yor-yor!”.Ey Navoiy, endi sarmanziling, ya'ni ilk qo'nar joying Chindir, qo'shig'ing (bu o'rinda doston nazarda tutilmoqda) ham sur ichida chingadir. Baytda Iskandarning chin eliga kuyov bo'lg'ni aytilmoqda. Ikkinchi misradagi “sur” so'zida iychom san'ati mavjud bo'lib, bu so'z bir ma'nosi bilan bazm, to'y, bir ma'nosi bilan qal'a, qo'rg'on kabi tushunchalarni ifodalamoqda. So'nggi baytda esa shoir qalbining tub-tubiga yashiringan alamlar aks etgandek tuyuladi: yor-yorlar kuylangan necha qo'shiqlaringki bor, ularni eshitib mening ko'zyoshlarim shashqator. Iskandarning nikoh bazmini tuzib mug'anniy orqali “yor-yor”lar bilan ulug' shohni qutlashni istagan Navoiy shu “yor-yor”lardan bittasi o'ziga nasib etmaganidan o'kinayotgandek nazarimizda. Balki, shundandir qo'shiqchi: “jon qardoshim, yor-

⁴⁸ Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.383-b.

yor” deb kuylagan vaqt dardkash shoir: “munglug` boshim, yor-yor” deb zor-zor yig`lamoqda.

Yana bir mug`anniynoma Iskandarning Mag`rib tomon qilgan safari bayonidagi bobda joylashgan:

Mug`anniy, g`aribona un chek hazin

Ki, manzilga ham bo`ldi Mag`rib zamin.

Sochay boshing uzra zari mag`ribiy,

Quyosh yerga mag`ribda sochqon kibi.⁴⁹

Ey mug`anniy, hazin bir ohangda g`arib kuy chalginki, bugun qo`nar yerimiz Mag`rib zamini bo`ldi. Shunda men ham quyosh botar chog`i yerga zarrin nurlarini sochgandek Mag`ribning zarlarini boshing uzra sochay.

Yana bir o`rinda shunday keladi:

Mug`anniy surudi visol ayla soz

Ki, hijronda ko`p topdi jonim gudoz.

Aningdekki, ul qavm topdi visol,

Manga ham nasib aylagay Zuljalol!⁵⁰

Ey mug`anniy, visol kuyini chalginki, bu jonim hajrda ko`p kuyib-yondi. Shunday kuylaginki, ul qavm (bu o`rinda mo`r xayli, ya`ni chumolilar galasi nazarda tutilmoqda) visol topganidek, menga ham Zuljalol–buyuklik egasi visol nasib aylasin!

⁴⁹ Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.401-b.

⁵⁰ O`sha asar. 423-b.

Mug`anniyga atalgan keyingi noma Iskandarning Mag`rib diyoridan Rum sari qilgan safari haqidagi bobdadir:

Mug`anniy, chu topdim maqomimda kom,

Tuzat kom ila sen dog`i bir maqom.

Qilib fahm ul ohangning rangini

Yana tark etay sayr ohangini.⁵¹

Ey mug`anniy, maqomim - dostonim ichra bir maqsadga erishgan chog`da sen ham o`z maqomingdan dillarni bahramand etgin. Tuzgan bu ohanging nafini fahm etarkan bir muddat sayr etish xayolini tark etay!

Yana bir o`rinda mug`anniyga xitob keladi:

Mug`anniy, tarona tuzat rexta,

Hazin rudungga lahne omexta

Ki, ashkimni to`kkay duri nobdek,

Buyurg`ay manga charxi girdobdek.

Ey mug`anniy! Mungli bir kuy chal, sozingga hazin bir qo`shiqni ham jo`r qilginki, u toza sadaflardek ko`zyoshlarimni to`kib, go`yo uyirma suvni aylantiruvchi charxdek ta`sir etsin menga!

Shuningdek, Iskandarning Muhit markaziga yetib, Iskandariyani azm etgani borasidagi bobda ham bir mug`anniynoma bor:

Mug`anniy, chekib nag`ma qil bizni shod,

Kerak bo`lsa ul nag`mai xayrbod.

⁵¹ Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.445-b.

Agar munglug` istar esang anda bayt,

Navoiyning oshufta nazmidin ayt !

Navoiy, topib soqiyi mohvash,

Yonida aning mutribi nag`makash.

Bo`lub mast, yod etma ogohliq,

Agar istar ersang dame shohliq.⁵²

Ey mug`anniy, kuy chalib bizni shod qil, agar lozim topsang vidolashuv kuyini chalgin, mabodo bu qo`shig`ing mungliroq bo`lishini istasang, uning matnini Navoiyning oshiqona ruhda yozilgan nazmidan tuzgin! Ey Navoiy, oy kabi bir soqiy bo`lsa, yonida yoqimli ovoz egasi bo`lgan bir hofiz bo`lsa, shunda bir damga bo`lsa-da shoh bo`lishni istar esang, may ichib mast bo`lgin-u, ogohlikni yoddan ko`targin!

Keyingi noma shoh Iskandarning vafot etgani haqidagi bobdadir:

Mug`anniy, kel-u navha ohangi tuz,

Buzug` ko`nglumizni yana do`gi buz.

Ki, ham motamiy qildi, ham g`amzada,

Firoq ichra bizni bu motamkada.

Navoiy, jahondin vafo istama,

Tutub benavolig`, navo istama !

Birovga jahondin yetishmas ano

Kim, ul tutsa oyini faqr-u fano.⁵³

⁵² Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.514-b.

Ey mug`anniy, kel-u hazin bir navo tuzgin, shundoq ham ezilgan dillarimizni yanada buzgin. Bu motam uyida firoq ichra azador bo`lib, qayg`uga botib qoldik. Ey Navoiy, bu jahondan vafo istama, o`zni benavo – bechora tutib, navo – nasib istama! Zero, faqr-u fanoni rasm qilgan biror kishi – biror so`fiyga bu jahondan kulfat yetmadi. Bu baytda faqr-u fano tasavvufiy faqrlik va yo`qlik, ya`ni o`zidan, nafsidan kechib ilohiyotga berilish ma`nosida kelgan.

Dostonning Hikmat boblaridan birida Navoiy mug`anniyga qarata aytadi:

Mug`anniy, tuzat nay unin dilpazir

Ki, bas qilg`udek bo`ldi kilkim sarir

Ki, mast o`lg`onimda ichib jomi may,

Gar ul nay uni sokin o`lsa, bu nay.⁵⁴

Ey mug`anniy, ko`ngilga yoquvchi nay kuyini chalginki, bu qamish qalamim g`ijirlashni, ya`ni yozishni tugatar bo`ldi. Agar jom to`la may ichib mast bo`lganimda u nayning sadolari ajib bir sokinlik baxsh etsa, bu haqiqiy naydir!

Nihoyat, dostonning oxirgi bobida so`nggi mug`anniy nomaga duch kelamiz:

Mug`anniy, so`zum tingla oxirgahi,

Hazin nag`maye soz qil xirgahi.

Bir ohang ila aylagil romishe

Ki, yetgay manga bir dam oromishe.

Navoiy, qilib tengri koming ravo,

Sanga ro`zi etti ajoyib navo.

⁵³O`sha asar. 533-b.

⁵⁴Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.558-b.

Uzot tengri shukri navosig`a til,

Navo ortuq istar esang, shukr qil!⁵⁵

Ey mug`anniy, oxirgi vaqt so`zim tinglagin va ularga quloq berarkan hazin bir kuyni hirgoya qilgin. Ha, ohang tuzib, bir ashula aytginki, uni tinglab bir oz tin olay. Ey Navoiy, senga tangri o`z nasibasini ravo ko`rdi, yani U seni bir ajoyib xazinaga erishtirdi. Shunday ekan, endi bu bahramandlik uchun tangriga shukrona keltirgin, nasibang ziyoda bo`lishini tilar bo`lsang, yana shukr qilgin.

Ushbu mug`anniynomalardan olgan xulosalarimizni savol-u javob tarzida berishni maqul deb topdik. E`tibor qilinsa, “Saddi Iskandariy” dostonining yuqorida nomlari zikr qilingan yigirma olti bobning barchasida muallif so`nggi so`z o`rnida avval soqiyga, so`ng mug`anniyga, yakunda o`ziga murojaat etadi. Xo`sh, buning siri nimada? Soqiy, mug`anniy va Navoiy shaxslarini nima bir joyda bog`lab turadi? Navoiy nega aynan soqiy va mug`anniyga xitob qiladi? Shu o`rinda “O`tgan kunlar” romanining bir lavhasini eslab o`tish joiz. Qandaydir tushunmovchiliklar sababli Marg`ilondan quvilgan Otabekning birinchi borar manzili nega mayxona bo`ldi? Nima uchun Otabekdek iymoni butun, xudojo`y inson aynan sharobning ko`magida dard-u alamlaridan qutulishni afzal deb bildi? Nima Yusufbek Hojidek mo`min-musulmon otaning tarbiyasini olgan bu yigit g`am-u tashvishlarni aritishning haqiqiy chorasi qayerda va qanday ekanini bilmasmidi? Yoki asar muallifi ayni shu bobni boshqacharoq yozishiga biror nima to`squinlik qilarmidi? Ha, to`squinlik qilar edi, fikrimizcha, bu hodisaning boshqacha tus olishiga haqiqat to`squinlik qilar edi. Chunki Otabek ham oddiy odam edi. Odam esa adasha-adasha to`g`ri yo`lni topadi. U may ichish harom ekanligini juda yaxshi bilar edi, shu bilan birga unda lahzalarga bo`lsa-da kechmishni unuttiruvchi xususiyat borligini ham bilar edi. Biz ushbu fikrlarimiz bilan dard ustida turgan odam sharob ichib, tashvishlarini yengishi mumkin, degan fikrdan tamoman

⁵⁵ O`sha asar. 582-b.

yiroqmiz, balki, may vaqtinchalik bo'lsa-da rohat bera oladigan xususiyati bilan odamni o'ziga jalb qiladi demoqchimiz, xolos. Endi xuddi shu voqea kitobxon Otabekning tinimsiz sharob ichish bilan birga mashshoqdan bir kuy tinglashni ham istaganiga guvoh bo'ladi. Bu kuy Otabek uchun atalgan "Ayriliq" kuyi edi. Zero, Rumi aytganidek, nayning sadosi insonga o'z mojarosini eslatgani uchun ham sevib tinglanadi. Demak, soqiy, mashshoq va Otabek orasidagi bog'liqlik ham qahramonimizning o'tli dard sohibi ekanligi-yu, soqiyning sharobida bu dardni unuttirib, mashshoqning qo'shig'ida esa o'z dardini eslata turib, orom beruvchi xususiyatning borligidadir. Ushbu misolni mug'anniynomalarni dunyoviy talqin qilishdagi bir usul deb tushunaylikda, baytlarni botiniy-tasavvufiy tahliliga kirishaylik. Mug'anniynomada ta'riflanayotgan mayxona – Allohning sevimli bandalari to'planadigan bir xarobot; may – Allohning ishq; soqiy – bu may-ishqni jom-ko'ngilga quyib turuvchi Azalning o'zi; mug'anniy – Uning hikmatlarini ko'ngillarga xush yoqadigan turfa ohanglarda kuylab turuvchi piri murshid bo'lsa! Bir g'amnok inson – o'z qo'shigi, ya'ni dostonini yozish mobaynida hayotning butun ikir-chikirlariga guvoh bo'lgan, teskari aylanuvchi falakning na Iskandar va na Xoqonga vafo qilmaganining shohidiga aylangan, faqat faqr-u fanoni o'ziga rasm qilgan so'fiygina bu jafokor jahondan aziyat chekmasligiga amin bo'lgan Navoiy uchun rohat va qanoat beruvchi bundan ortiq manzara bormi?!

Bu mug'anniynomalar Otabek haqidagi voqeani xotirlab dunyoviy talqin qilinganda ham, so'zlarga tasavvufiy ifor berib irfoniy talqin qilinganda ham o'z mantig'ini yo'qotmaydi. Ushbu bob yakunida shuni ta'kidlash mumkinki, bu satrlar ana shuning uchun ham asrlar o'tsa-da o'tkinchi bo'lib qolmayapti.

Xulosa:

Ushbutadqiqotimizniyakunlarekanmizquyidagilarniasosiyxulosalarsifatidakeltir
ibo'tmoqchimiz:

- Navoiyijodidakuyso'zibilanbirma'nodanavo, *nag'ma*, *tarona*, *surud*, *yir*,
qo'shuq, *chinga*, *ovoz*, *ayalg'u*, *ohang*, *savt*, *nag'am*, *zaxma*, *maqom*, *rost*, *alhon*,
amal, *romish* kabiso'zlarqo'llanilganvabuataamalarninggenezisihamo'zigaxos.
Chunonchi, *kuy*, *yir*, *qo'shuq*, *chinga*, *ayalg'uso'z* larisofturkiybo'lsa, *nag'ma*, *savt*,
nag'am, *maqom*, *alhon*, *amalso'z* lariasliarabvanavo, *tarona*, *surud*, *ovoz*, *ohang*,
zahma, *rost*, *romish* so'zlariasliforstillarigamansubbo'lib, turkiygao'zlashgandir.
Ta'kidlashjoizki,
buso'zlarningdeyarlibarchasiomonimso'zlarhamdirvaaynishugrammatikhodisalarN
avoiybadiiyatidanozikbirholatlarvujudgakelishiga,
ya'niko'phollardatajnisyokiyyhomsan'atlariningyuzagakelishigasababbo'lganhamd
ashe'rlarningbadiiysaviyasioshishigayetarliasosbo'libxizmatqilgan. Aytish
mumkinki, yuqoridagi so'zlarning barchasi Navoiyning ham nazmiy, ham nasriy
asarlarida o'ta faol qo'llangan.

- Musiqaga tegishli ushbu atamalarning hozirgi o'zbek adabiy tilidagi
qo'llanilish darajasini esa quyidagicha belgilash mumkin: *kuy*, *qo'shiq*, *navo*,
tarona, *ohang*, *maqom* so'zlari keng doirada faol qo'llaniluvchi; *rost*, *amal*, *savt*,
surud, *alhon* so'zlari tor doiraga tegishli bo'lib, qo'llanilishi biroz cheklangan
so'zlardir. *Yir* so'zi ba'zi shevalarda jir tarzida saqlanib, adabiy tilimizda ham xalq
qo'shiqlarining bir turi sifatida iste'molda bo'lsa, *chinga* so'zi yor-yor yoki o'lan
so'zlariga o'z o'rnini bo'shatib bergan. *Nag'ma* so'zi ko'p hollarda "noz-
karashma" ma'nosida, *ovoz* so'zi esa tovush ma'nosida keladi. *Ayalg'u*, *zaxma*
so'zlari deyarli iste'moldan chiqib ketgan.

- Navoiy ijodida *navogo'*, *navozanda*, *navosoz*, *nag'makash*, *nag'mazan*,
nag'makor, *nag'masaroy*, *nag'mapardoz*, *nag'masoz*, *yirov*, *mug'anniy*,

mutribkabi soʻzlar va ahli navo brikmasi musiqa sohasiga tegishli kasb otlari boʻlib kelgan.

- Shuningdek, *xushnavo*, *xushnavoz*, *xushnagʻmasaro*, *bulbul* soʻzlari esa ashulachilarga berilgan sifatlar qatorida faol ishlatilgan. Qizigʻi shundaki, shoir ijodida kuy va kuychi soʻzlarining barcha maʼnodoshlari va xonandalarga beriladigan sifatlarning hammasi goʻzal badiiy manzaralar yaratish uchun asos boʻlgan.

- Navoiy ijodida kuy soʻzining maʼnodoshlari nafaqat asl maʼnosida, balki bir qancha ramziy maʼnolarda kelganiga ham guvoh boʻlish mumkin. Masalan, bir oʻrinda “ijod; sheʼriyat”, yana bir oʻrinda may bilan bir qatorda “soʻfiyning insonni gʻaflatga botishdan ogohlikka chorlovchi purhikmat soʻzlari” maʼnolarida kelgan.

- Tadqiqotimiz samarasi oʻlaroq yana shuni aytib oʻtish mumkinki, Navoiy musiqani yaxshi idrok etgan, shoirning musiqa ilmiga atab bir risola yozgani ham manbalarda qayd etilgan, ammo hozircha bu ilmiy asarning taqdiri nomaʼlum. Ulugʻ mutafakkir musiqa ilmida ham salaflariga munosib shogird edi. U Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xisrav Dehlaviylarning musiqa sohasida amalga oshirgan ishlarining munosib davomchisi boʻldi. Ustozi Abdurahmon Jomiydan esa musiqa ilmida bir risola yozishini iltimos qildiki, bu bejiz emas. Navoiy musiqani sheʼriyatdan ayro holda tasavvur eta olmasdi. Uning fikricha, bu ikki soha bir-birini taqozo etar, ularning alohida alohida rivojlanishi mumkin emas edi. Abdurahmon Jomiy esa sheʼriyat ilmida ham, musiqa ilmida ham zamonasining yetuk olimi edi. Tarixchi olim Xondamir va temuriyzoda olim Boburning bayon qilishlaricha, Navoiyning talab va taklifiga binoan musiqa sohasida yana toʻrt olim musiqiy risola yozganlar, ammo bu risolalardan shoirning koʻngli toʻlmagani bois ustozi Abdurahmon Jomiydan ham musiqiy risola yozishini soʻragan. Yana Zahiriddin Muhammad Boburning xabar berishicha, Navoiy oʻz davrining bir qancha isteʼdodli xonanda va sozandalariga ham moddiy, ham maʼnaviy yordam bergan. Xususan, musiqadan mutlaqo bexabar

Binoiyning shu sohada ilmiy asar yozishdek darajaga yetishishida ham Navoiyning hissasi benihoya bo`lgan.

- Abdurauf Fitratning “O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asaridagi ma’lumotlarga ko`ra, “Qari Navo” nomli kuyning muallifi asli Navoiy ekan. Zero, Navoiy musiqa ilmidan yaxshi xabardor bo`lgan va bu boradagi bilimlarini zamonasining peshqadam musiqashunos olimi Yusuf Burxonning ko`magi bilan mukammallashtirgan.

- Umuman, Navoiy musiqaning inson ruhiyatiga bo`lgan katta ta’sirini nozik his etgan. Shoirning bu boradagi estetik qarashlari ham nazmiy, ham nasriy asarlarida o`z aksini topgan. Zero, Navoiy musiqaning asl mohiyatini nozik idrok etish bilan bir qatorda bu nafis olamdan barchaning birdek bahramand bo`lishini chin dildan istagan va shu yo`lda xalqqa beminnat xizmat qilgan.

- Navoiyning kuy-u navo haqidagi qarashlari uning nafosat olamini bir butun holda tasavvur etishga yordam beradi. Bu estetik yondashuvlar shoir badiiyatida go`zal mazmun va shakllarda o`z izini qoldirgan. “Ey mug`anniy...” deb boshlanuvchi g`azaldagi badiiy ifodalarning o`ziyoq fikrimizni dalillaydi. G`azaldagi nido, iyhom, ra’ddi matla’ kabi san’atlar uning badiiyligiga alohida joziba bag`ishlagan. Quyilib kelayotgan fikrlarning bir nuqtada boshlanib, o`sha nuqtada yakunlanishi, ya’ni matla’dagi birinchi misraning maqta’da takrorlanishi Navoiy badiiy mahoratining qanchalar yuksak ekanligini yana bir karra namoyish qilib, g`azalning badiiy – g`oyaviy qimmatini oshirish uchun xizmat qilgan.

- Ushbu mavzudagi tadqiqotchini o`ziga jalb etuvchi yana bir holat “Saddi Iskandariy” dostonidagi ayrim boblarning xotima qismidir, desak adashmaymiz. Diqqat bilan kuzatsak, Navoiy dostonning yigirma olti o`rnida har safar ma’lum bir bobni yakunlar ekan avval soqiyga, so`ng mug`anniyga, yakunda o`ziga murojaat qilib xotima yasaydi. Bunday yakunlanish “Saddi Iskandariy”ni boshqa qahramonlik dostonlaridan ajratib turish bilan birga kitobxonni mushohada

qilishga undaydi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu holat dunyoviy hamda tasavvufiy tarzda talqin qilinganda ham o’z qimmatini yo’qotmaydi. Xususan, mug’anniyga qilingan murojaatlar zahirida Navoiyning o’tkir falsafiy fikrlari yashiringan. Zero, mug’anniy debocha qismida doston yozishga kirishayotgan Navoiyni yakka-latmay u bilan ulfatlikda bir qo’shiq kuylashi; shoh gulshan aro bazm tuzgan holat tasvirlangan bobda unga muvofiq keluvchi sho’xchan bir navo tuzishi; el orasida qadri baland odamlar haqida gap ketganda kuy-u navo ham shunga monand ravishda bo’lishi; muallif Ajam shohlari ta’rifini so’zlar bilan marjon kabi tizgan payt mug’anniy ham ularni madh etuvchi “Ajam” , “Pahlaviy” kuylarini chalishi; Iskandarshohning taxtga o’tirar bazmida , qutlov qo’shig’ini aytishi; agar bobda jang tasviriribayon qilinar bo’lsa, “Shohnoma” ohangidagi qahramonlik kuyini chalishi; ikki shoh (Iskandar va Doro) xafalashib qolar bo’lsa, ularni murosaga chorlovchi yarashuv kuyini chalishi; dostonidan ta’sirlangan muallif yoshligini qo’msagan vaqt yoshlik kuyini tuzishi; shohning nikoh bazmida yor-yorni kuylashi; safar yo’nalishi Hind sari bo’lsa hindcha, Chin sari bo’lsa chinch, Kashmir sari bo’lganda kashmirliklarga monand bir kuy chalishi; shoh vafot etganda motam navosini kuylashi; kitobxonlar bilan xayrlashish vaqti kelganida vidolashuv kuyini chalishi lozim edi. Ana shundan kelib chiqib, bu mug’anniynomalarni dostonning yirik boblari uchun munosib xotima bo’lgan, desak adashmaymiz.

Umuman olganda, Navoiy dunyoni musiqasiz, kuysiz tasavvur eta olmagan. Ulug’ mutafakkirning badiiy qarashlari bilan uning nafosat olami uyg’unlashib ketgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", T. 2008.
2. Alisher Navoiy. "Xazoyin ul-maoniy" – "Badoe ul-vasat", o'n besh tomlik, 3-tom. T.1963.
3. Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror", mukammal asarlar to'plami, yigirma tomlik, 7-tom. T. 1992.
4. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub", yigirma tomlik, 14-tom, T. 1998.
5. Alisher Navoiy. "Navodir ush-shabob", o'n besh tomlik, 2-tom. T. 1963.
6. Alisher Navoiy. "G'aroyib us-sig'ar", o'n besh tomlik, 1-tom. T. 1963.
7. Alisher Navoiy. "Favoyid ul- kibar", o'n besh tomlik, 4-tom. T.1965.
8. Alisher Navoiy. "Saddi Iskandariy", yigirma tomlik, 11-tom. T. 1993.
9. Alisher Navoiy. "Mezon ul-avzon", yigirma tomlik, 16-tom, T. 2000.
10. Alisher Navoiy. "Majolis un- nafois", o'n besh tomlik, 12-tom, T.1966.
11. Alisher Navoiy. "Layli va Majnun", Yigirma tomlik, 9-tom T. 1991.
12. Alisher Navoiy. "Farhod va Shirin". Yigirma tomlik, 8 -tom T. 1991.
13. Alibek Rustamov. "So'z xususida so'z" T. 2012.
14. Alibeg Rustamiy. "Hazrat-i Navoyiyning e'tiqodi " T. 2010.
15. Alibeg Rustamiy. "Hazrat-I Navoyiyning "mast-i alast"i " T. 2012.
16. Alibek Rustamov. "Navoiyning badiiy mahorati". T. 1979.
17. Abu Nasr Forobiy. "Fozil odamlar shahri", T. 1963.

18. Begali Qosimov. Adabiyot, darslik, T. 2004.
19. Botirbek Hasanov. “Navoiy asarlari uchun qisqacha lug`at” T.1993.
20. Jiqan Uquyuji. “Ichimizdagi Mavlono”, T. 2011.
21. N.M. Mallayev. “Navoiy ijodiyotining xalqchil negizi”, T. 1973.
22. “Navoiy va yoshlar tarbiyasi”, ilmiy to`plam, T. 2010.
23. Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibragimov. “Navoiy asarlari lug`ati”, T.1972.
24. Q. Sodiqov. “Muhokamat ul-lug`atayn” ni o`qib o`rganish”, T.2011.
25. Q. Sodiqov. “Navoiy – kuy va qo`shiq so`zining ma`nosi”, “Sharq mash`ali” jurnali, 1,2-sonlar. T. 2001.
26. R. Abdurahmonov va boshq. “Navoiy va uning musiqiy olami”, T. 2012.
27. S. G`aniyeva. “Navoiyning mug`anniynomalari”, “Moziydan sado” jurnali, T. 2007.
28. S. G`aniyeva. “Nizomiy mug`anniynomalari”, “Nizomiy va o`zbek adabiyoti”, ilmiy to`plami, T. 2007.
29. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”, T. 1990.